


**ABDUKARIM MIRZAYEV**



**TUSHIMDA  
QIYOMATNI  
KO'RDIM**



# **Tushimda qiyomatni ko‘rdim**

Hikoyalar to‘plami

Abdukarim Mirzayev



## **Tushimda qiyomatni ko'rdim**

Bu hikoyani bag'dodlik Ahmad ibn Miskin aytib bergen.

“Hijriy 233-yilda Balx shahrida edim, — deydi u. — O'sha paytlarda u shaharning eng katta olimi Xuroson shayxi Abu Abdurahmon Zohid degan kishi edi. U kishiga shunday ta'rif beriladi: «Qalbining orqasida tili, tilining orqasida qalbi turardi». Ma'nosi: qalbi bilan tili bir xil edi. Qanday ko'rinsa, shunday gapirardi, qanday gapirsa, shunday ko'rinnardi.

Bir kuni masjidga u kishining suhbatini eshitish uchun bordim, ammo u kishi ayrim sabablarga ko'ra kech qoldi. Keyin u yerda bir kishi ustozning biroz kechikishini jamoaga bildirdi va: “Domla kelgunlariga qadar oralarin-gizdan kimdir biror masalada gapirib tursa”, — deb taklif kiritdi. U yerda Abu Turob degan bir do'stim bor edi. Bu taklif aytilishi bilan Abu Turob biqinimga niqtadi-da, “Chiq-chiq”, —

dedi. "Endi siz ham imom Ahmadlarni ko'rgan, Bishrul Xofiylarni ko'rgan odamsiz. Chiqib ular haqida bizga biror narsa gapirib bering", — deyishdi. Xullas, qo'yarda-qo'y may meni minbaraga chiqarishdi, do'stim Abu Turob menga dalda bo'lish uchun yonimda o'tirdi. E'tibor bersam, odamlar bo'yinlarini cho'zib, boshlarini ko'tarib menga qarashyapti: "Kim ekan bu endi?" — deb... Shuning uchun ichimdan ilhomlanib ketdim, ko'nglimda ularga biror-bir voqeani hikoya qilib berish istagi tug'ildi va hikoyamni boshladim.

Hijriy 219-yilda men yo'qchilikka tushib qoldim. U paytlarda Bag'dodda yashardim. Sahroning issig'i odamni yondiraman deydi. Yegani hech vaqo yo'q. Hovlida hech narsa qolmagan. Hatto daraxtlarning barglari ham qovjirab ketgan. Hovlim shu qadar issiqki, go'yo butun dunyoning jamiki sahrolari yig'ilib olgandek tuyulardi. Shunaqa ilojsiz ahvolda edik. Chorasiz edik. Uyda men bor, rafiqam va kichkina farzandim bor. Bolam o'zi uchun och, ayolim ikki kishi — ham o'zi, ham bolam uchun och. Men uch kishi uchun ochman. Bolam uchun bir marta, ayolim uchun bir marta, o'zim uchun yana bir marta. Uch barobar ochman. Nega? Chunki ularning qornini to'yg'izish

mas'uliyati mening bo'ynimda. Lekin ularga hech narsa yedira olmayapman.

Xayolimga shunday fikr kelardi: qani, sichqon bo'lib qolsam-da, mana shu uyning yog'ochlarini, daraxtlarni yesam... Shunday qilib kun ko'rsam... Keyin agar sichqon bo'lish imkonsiz ekan, hech bo'lmasa, bu uyni sotib yeylek deb o'yladim. Shu fikr kelib qoldi. Ammo uydan voz kechish terimni shilib olishday gap edi... Chunki uyni ham sotadigan bo'lsam, hech vaqoyim qolmasdi... Oilam bilan ko'cha-da qolardik. O'sha kechasi hech uxlolmadim. U yoqdan bu yoqqa ag'darilaverdim. Xuddiki qilich zarblaridan abgor bo'lib ketgan, tirnal-magan, kesilmagan joyi qolmagan qalqonga o'xshardim... Badanim jarohatga to'la edi... U tarafga ag'anayman, bir yaraning ustini bosib, uyg'onib ketaman. Bu tarafga ag'anayman, yana bir yaraning ustini bosib, uyg'onib ketaman. Og'ir jangdan chiqqan yarador kabi edim.

Tongda g'ira-shirada turib bomdod namozini o'qish uchun masjidga chiqdim. Namozdan keyin odamlar qo'lini ochib duo qila boshlashdi. Men ham duo qilib aytdim-ki: "Allohim, men Sendan faqirligim dinimga zarar berib qo'yishidan asrashingni so'rayman, Senga qilgan toatim tufayli menga yaxshi-

liklar ato etishingni va Sening taqdiringga rozi bo'lishdan keladigan barakani istayman, Senga toat-ibodat qilish uchun va yana Sendan kelgan har narsaga rozi bo'lish uchun menga kuch bag'ishlashingni istayman, yo arhamar rohimiyн".

So'ng bir chekkaga chiqib o'tirdim. Xud-diki tashqariga chiqsam, dunyo yana o'zining g'am ummoniga tortib ketadigandek tuyuldi. Qo'rquv va nochorlik ichida masjiddan chiq-may o'tirdim. Vaqt o'tdi, quyosh tepaga ko'tarildi, bir umr u yerda qololmayman-ku — tashqa-riга chiqishga majbur edim. Chunki uyda ayo-lim va bolam och edi...

Masjiddan chiqib, yo'lda ketar ekanman, Abu Nasr Sayyod ismli bir do'stim bilan ko'ri-shib qoldim. Do'stim ovchi edi. Men unga vazi-yatni tushuntirdim. Ahvolim og'irligini, uyda oilam och o'tirganini aytdim va: "Bugunchalik bir kunimizga yarab turadigan biror narsangiz bo'lsa, menga qarz berib tursangiz... Uyni sotishim bilan qaytarib beraman", — dedim. Shunda u qo'lidagi tugunni tutqazdi va: "Mana shu tugunni oling va uydagilarga olib boring. Bular shayxning barakasidan bo'lsa kerak", — dedi. Men unchalik tushunmadim. Hayron bo'lib turganimni ko'rib, bir kun avval hayotida yuz bergen voqeani gapirib berdi».

Bizni mol-davlatimiz  
qutqarib qololmasligi  
mumkin, lekin bir  
g‘aribning ko‘nglini  
olish, bir nochorning  
og‘iriga yelka  
tutish qayerdadir  
boshimizga soyabon  
bo‘lishi muqarrarligini  
esimizdan  
chiqarmasligimiz  
kerak.

Endi Abu Nasr hikoya qilyapti: "Kecha juma namozidan keyin masjiddan ketmay, masjidning yonida turuvdim. Hamma odamlar tarqalib ketdi. Yonimdan Bishrul Xofiy o'tib qoldi. Bishrul Xofiy meni kordi va: "Kaminaga nima boldiki, sizni bu ahvolda ko'ryapman? Bu paytda bu yerda nima qilib turibsiz?" — deb so'radi. "Shayxim, uyimda hech vaqo qolmadidi. Ahvolim tang", — dedim. Shayx: "Alloh yordamchingiz bo'lsin, — dedi. — To'ringizni oling va orqamdan yuring". Men to'rimni oldim va orqasidan ergashdim. Daryo bo'yiga bordik. Shayx: "Tahorat oling", — dedi. Tahorat oldim. "Endi ikki rakaat namoz o'qing", — dedi. Ikki rakaat namoz o'qidim. Namoz o'qib bo'lganimdan keyin: "Endi "Bismilloh" deb to'ringizni suvgaga tashlang", — dedi. Men aytganidek qilib "Bismilloh" deb to'rimni daryoga otdim. Oradan hech qancha o'tmay og'ir bir narsa to'rimga ilinib, pastga torta boshladi. Qancha harakat qilmayin, uni chiqara olmadim. Kuchim yetmadi. Tortyapman, tortyapman — kuchim yetmayapti. Keyin: "Shayxim, yordam bering, hozir yordam bermasangiz, buni chiqara olmayman, qochib ketadi", — dedim. Shayx ham yordam berdi. Birgalashib to'rni tortdik. Juda katta baliq ilinibdi. Umrim bino bo'lib bunaqa baliqni ko'r-magandim.

Shayx menga bu baliqni bozorga olib borib sotishni va puliga uyga kerakli narsalarni xarid qilishni buyurib, o'zi ketdi. Men baliqni bozorga olib bordim. Borishim bilan bir odam qo'limdagi baliqqa xaridor bo'ldi. Puldor odam ekan. Tortishib ham o'tirmay juda katta pulga sotib oldi. U uydagi jamiki ehtiyojlarimni qanoatlan-tiradigan darajada ko'p pul berdi. Men kerakli narsalarni sotib oldim. Uyga qaytdim, uydagilar bilan maza qilib ovqatlanganimizdan keyin shayx esimga tushib, "U kishiga ham biror narsani hadya qilib olib borishim kerak", — dedim.

Ikkita nonning o'rtasiga holva qo'yib, bir tugunchaga tugdim, borib shayxning eshigini taqillatdim. Ichkaridan: "Kim u?" — deb so'radi. "Men, Abu Nasrman", — dedim. "Eshikni oching, qo'lingizda biror narsa bo'lsa, uni dahlizda qoldiring", — dedi shayx. Men qo'limdagi tugunni dahlizda qoldirib ichkariga kirdim, baliqni sotganimni, kerakli narsalarni olganimni, uydagilar bilan maza qilib yeb-ichganimizni, qornimiz to'yanini va shayxga ham ikkita non olib kelganimni aytdim. Shayx: "Alhamdulillah!" — dedi. "Allohgaga hamdlar bo'lsin!" — dedi. "Eshikda qoldirib kirdim, sizga bir tugun olib kelgandim", — deganimda u kishi: "Ey Abu Nasr, agar biz o'zimizga bunday narsalarni yeishni ep ko'rganimizda, hech qa-

chon baliq chiqmasdi", — dedi. "Borib, oilangizga yediring", — deb tayinladi. "Bu narsalar sizga va oilangizga nasib qilgan ekan", — dedi».

Mana shu yerda Abu Nasrning hikoyasi tugaydi. Endi Ahmad ibn Miskin hikoyasida davom etadi.

«Shu qadar och edimki, xuddi qo'limga biror joydan qotgan non kelib qolsa, xuddi osmondan ochil dasturxon tushgandek quvonib ketadigan darajada edim. Lekin shayxning baliq to'g'risidagi so'zi meni to'ydirib qo'ydi. Bu to'yish bu dunyoga tegishli to'yish emasdi. Xud-diki jannatning mevalaridan yegandek nafsim orom olgandi. Bu qanday sodir bo'lganini bilmayman. Keyin mulohaza qilib, yo'limda davom etdim va o'yladimki, bizning zaifliklarimiz xuddi jarohatlarga o'xshaydi. Ya'ni jarohatlar pashshalarni o'ziga jalb qilganidek, bizning zaifliklarimiz ham, kamchiliklarimiz ham shaytonni o'ziga tortadi, ana shu tomon dan keladi, ana shu tomon dan chalg'itadi, ana shu tomon dan ziyon beradi, ana shu tomon dan sinovimizni qiyinlashtiradi va yana o'yladimki, shayxga o'xshagan odamlar Allohning ularga bergen fazilatlarini fazilat deb bilishmas, balki Allohning ularga bergen omonatlari deb o'ylashar va o'zlarining foydasi uchun ishlatishmas ekan.

Keyin qo'limgagi tugunga qaradim va: "Allohning la'nati bo'sin bu dunyoga", — dedim. "O'zi bu dunyo juda arzimas, ya'ni eski bir poy-abzal, lekin biz, insonlar, uni yuzimizga kiyib olganmiz", — deb o'yladim. Agar insonlar dunyoga farishtalar nigohi bilan qarashsa edi, al-batta, bu dunyoni shunday bir chirkin holatda ko'rishardi. Ko'zlari inson yuzidagi balchiqlar va chirkinliklarga tushardi. Ya'ni oyoq ostiga yopishishi kerak bo'lgan narsalarning yuzga yopishib qolganiga guvoh bo'lishardi va ular-dan voz kechishardi.

Lekin, afsuski, biz unday ko'z bilan qaramaymiz. Yo'limda davom etdim va qo'limgagi ikki nonni shayxning siri deb bildim, qo'limda muhim bir hujjatni, ya'ni orqasidan ko'p bir yaxshiliklar kelishi mumkin bo'lgan hujjatni ko'tarib ketayotgandek his qildim o'zimni.

Yo'lda ketayotganimda oldimdan bola yetaklab olgan bir ayol chiqdi. Bola juda yosh edi. Ayol qo'limgagi tugunga qaradi va: "Alloh sizga marhamat qilsin, bu bola sagir va och. Bola bo'lganligi uchun ochlikka hech toqat qilolmayapti. Yordam qiling, imkoningiz bolsa, bu bolaga yediradigan biror narsa bering", — dedi. Bola menga shunday qaradiki, bu qarashda dunyodan kesilgan, dunyodan voz kechgan mingta obidning qarashi bor edi.

Mingta obid Allohning rahmatini so'rab iltijo qilsa ham, hammasining nigohida shu bolaning ko'zidagidek iltijo bo'lmasa kerak. Shu qadar edi u bola. Iltijoli qarash... Bolaning boshiga tushadigan mashaqqat, qayg'u, gam, anduh uning yuzini muqaddas insonlarning yuziga o'xshatib qo'yarkan-da... O'sha paytda, mening nazarimda, jannat yerga tushgandek bo'ldi... Xuddiki: "Mana shu bolaga va uning onasiga ovqat ber, qornini to'ydir, ularni jannatga doxil qil", — deyotgandek edi. Buni men ko'rardim, boshqalar ko'rmasdi. Xuddi eshak bir qasrning yonidan befarq o'tib ketgandek boshqalar ham ularning oldidan befarq o'tib ketishardi. Ya'ni eshak qasrning oldidan o'tdi nima, xaroba uyning oldidan o'tdi nima, hech farqi bo'lma-ganidek, odamlar ham ularning oldidan xuddi shunday befarq o'tishardi.

Ana shu paytda uyda o'tirgan bolam va ayolim esimga keldi. Ularning holati bu ik-kisinikidan yaxshiroqligini o'yladim va o'zim-nikilarni qalbimdan tushirdim... Qo'limdagи tugunni ayolga berdim va: "Allohga qasamki, qo'limda shundan boshqa hech narsa yo'q va o'zimning uyimda ham bu yemaklarga muhtoj-lar bor... Agar imkonim bo'lganida edi, sizlarni bu og'ir holatdan chiqarish uchun hech narsani ayamagan bolardim. Hech narsadan qaytma-

gan bolardim. Lekin, afsuski, imkonim yo'q", — dedim.

Bu gaplarimni eshitib, ayolning ko'zlariga yosh keldi, bolaning yuzi yorishib ketdi. Muhtoj holimda unga eng oxirgi narsamni bergenim uchun shu ahvolga tushishdi.

Qolimdagilarni ularga berdim va ketdim. Berishga berdim-u, eski holatimga qaytdim. Yana tushkunlik, yana holsizlik... O'sha yerdagi bir binoning devoriga suyanib o'tirib qoldim. Bir mahal ovchi do'stim Abu Nasr Sayyod yana yonimdan o'tib qoldi va meni ko'rib Xizrni ko'r-gandek sevinib ketdi. "Ey Abu Muhammad, bu yerda nima qilib o'tiribsiz, uyingiz mol-dun-yoga, xayrga to'lib ketdi-ku!" — dedi. "Ey Abu Nasr, baliq qayerdan chiqdi?" — dedim. Do'stim aytdi: "Boya siz bilan xayrlashganimdan keyin sizning oilaviy ehtiyojlaringiz uchun bir kishidan qarz oldim va uni sizga yetkizish uchun uyingiz tomonga ketayotgan edim, qarasam, bir odam sizni qidirib yurgan ekan. Yoniga bordim va unga sizni tanishimni aytdim. Keyin uyingizga yo'l oldik. Yo'lda suhbatlashib ketdik. U kishi basralik tujor ekan, otangizning yaqin do'stlaridan bo'lgan ekan. Otangiz ancha yillar avval unga katta miqdorda pul bergen ekan. Tijorat ishlari kasodga uchrabdi, Basrani tark etib, Xuroson tomonlarga ketibdi. U yerda tijo-

rati rivoj topib, boyib ketibdi. Otangizning haqini berib qo'yay deb Basraga qaytibdi, lekin uni qidirib topolmabdi, u yerdagilar o'gli Bag'doda yashaydi, borsangiz topasiz deb aytishgan ekan, sizni qidirib yurgan ekan".

Ahmad ibn Miskin aytadi: "Uyga borsam, haqiqatan ham uyim mol-dunyoga to'lib ketibdi. Ularni ko'rib, beixtiyor shayxning gapini takrorladim: «Agar biz bu narsalarni o'zimizga yedirganimizda edi, baliq chiqmas edi». "Shayx to'g'ri aytibdi", — dedim ichimda. Keyin o'yladim, agar otamning do'sti mana shu kuni, mana shu yo'lda, mana shu soatda Abu Nasrni uchratmaganida, meni hech qachon topa olmagan bo'lardi. Chunki otamni tirikligida ham hech kim tanimas edi, ya'ni unaqa mashhur odam emasdi. Nima deb o'ylaysiz, vafotidan keyin kimdir tanishi mumkinmidi? Yo'q, albat-ta. O'sha payt qalbimda qanchalik shukronalik hissi paydo bo'lganini Allohning o'zi biladi. Birinchi qiladigan ishim boyagi ayol bilan bolasini qidirish bo'ldi. Chunki avvalroq aytgandim-ku imkoniyatim bo'lganida, sizlarni bu mushkul ahvoldan qutqargan bo'lardim deb. Ularni qidirishga tushdim. Topdim, muammolarini hal qildim. Tijoratga qo'l urdim. Kelgan foydaning bir qismini muhtojlarga ehson uchun ajratib qo'ydim. Mol-dunyo ko'paygandan ko'paydi.

Men ham ehson qilishdan charchamadim va qalbimda o'zimning amallarimdan qanoat hissi paydo bo'ldi. Farishtalar bor-ku amal daftarmizni yozadigan. U farishtalar amal daftarlari-mni hasanotlarga to'dirib tashlagandek bo'ldi. Men shuni his qildim va Alloh taolo meni solihlar qatoriga yozib qo'ygan bo'lsa kerak deb o'yladim ichimda. Mana shunday hissiyotlar o'tdi qalbimdan va o'sha tunda bir tush ko'rdim...

Tushimda qiyomat qoyim bo'lganmish... Insonlar bir-birining ustida... Ular shu qadar ojiz, shu qadar qorquv ichida ediki, hammlari "Endi nima bolarkin, endi nima bolarkin?" degan xavotirda turardi. Insonlar shunaqa ko'p ediki, dengizdek mavjlanardi... Ana shu payt qayerdandir gumburlagan ovoz keldi va dediki: "Ey bani odam, hozir hayvonlarning hammasi shukr sajdasini qildi Alloh ularni odam qilib yaratmagani uchun".

Qiyomat kunini va insonlarni ko'rdim... Qilgan gunohlari har xil shakllarda boshlarining ustida turardi. Boshlarining ustida gunohlarini ko'tarib yurishardi. Hatto bir fosiq inson boshida ichi zulmga, fahshga, xiyonatga, yomonliklarga to'lib ketgan bir shaharni ko'tarib yurardi... Tarozilar qo'yildi... Meni tarozining oldiga olib kelishdi. Yaxshiliklarimni tarozining bir pallasiga, yomonliklarimni ikkinchi pal-

lasiga qo'yishdi... Gunoh ishlarim bosib ketdi... Keyin boshqa yaxshiliklarimni ham olib kela boshlashdi, birin-ketin... Ammo ularning ichi qanaqadir bo'sh edi. Xuddi ichini qurt yegan-dek. Hech bir og'irligi yo'q edi. Ularning ichida xuddi yashirin bir narsa — riyoga o'xshagan, g'ururga o'xshagan, manmansirashga o'xshagan, shuhratga o'xshagan narsa bor edi... Ah-volim juda tang edi, ya'ni yaxshi amallarimning birortasi yuk bosmasdi.

Keyin yana bir ovoz keldi: "Hech narsasi qolmadimi?". "Bu narsa qoldi", — deyishdi. Qarasam, ikkita nonni olib kelishyapti. Ayolga bergen ikkita non bor edi-ku, o'sha ikkita nonni. "Ado bo'ldim... Shuncha qilgan yaxshi ishlarim hech qancha yuk bosmadi... Endi bu nima bo'ladi?" — deb o'yladim... Masalan, bir safar yuz tilla ehson qilgandim. Hatto u ham hech qancha vazn bosmadi... Bulutday yengil edi. Muallaq qolardi. Hech og'irligi yo'q edi. Xullas, ikkita nonni taroziga olib kelishdi. U yerdagilardan biri: "Bu savobining yarmini Abu Nasr oladi", — dedi. Nonni do'stim bergen edi. Qat-tiq g'amga botdim endi. Bu nonning savobini ikkiga bo'lgandan ko'ra o'zimni ikkiga bo'lib yuborsa ham unchalik alam qilmasdi o'sha payt. Nonni taroziga tashlashdi. Tarozining pallalari qimirlab ketdi. Non ancha yuk bosdi. Hayrat-

landim. O'zimga sig'may ketyapman. Tarozini hech narsa qimirlata olmay turuvdi-da.

Boyagi ovoz yana: "Buning biron narsasi qolmadimi?" — dedi. "Mana bu narsasi qolgan ekan", — deyishdi. "Nimam qolgan ekan?" — deb qarasam, o'sha kunlardagi ayolim va bolamning ochligi qolgan ekan. Uniyam olib kelistidi. Ya'ni bu narsalarni ham taroziga qo'ysa bolarkan-da. Tarozini ancha bosdi. Tarozining ikki tarafi — yomonlik va yaxshilik tarafi tenglashib qoldi. Keyin yana so'rashdi: "Buning biron narsasi qoldimi?". "Mana bu narsasi qoldi", — deyishdi. Qarasam, boyagi ayolning ko'z yoshlari ekan. O'zim muhtoj bo'lganim holda, uyimda ayolim va bolam och bo'lgani holda unga yaxshilik qilganim, ularni mendan kora ko'proq muhtoj deb o'ylab o'sha qolimdagи ikkita nonni berganimdan ta'sirlanib to'kkан ko'z yoshlari ekan... O'shani taroziga qo'yishgandi, tarozining yaxshilik tarafi bosib ketdi.

Bu ko'z yoshi endi ko'paygandan ko'pa-yaverdi, ko'paygandan ko'payaverdi... Dengiz bo'lib ketdi. Keyin o'rtasidan bir chiroyli baliq sakrab chiqdi. Baliq shunaqangi chiroyli ediki, bu o'sha ko'z yoshining ruhi bo'lsa kerak deb o'yladim... Baliq ham kattalashgandan kattalashaverdi, kattalashishda davom etaverdi. Tarozining ham yaxshilik tarafi bosib ketaverdi

va o'sha payt "Qutuldi, qutuldi!" degan ovoz eshitildi. Xursand bo'lganimdan baqirib yubordim.

O'z ovozimdan o'zim cho'chib uyg'onib ketdim. Qarasam, tushim ekan, o'ngimda ham: "Men o'zimga har narsani yediraganimda, har narsani yediraverGANIMDA, bu baliq u yerdan chiqmagan bo'lardi! Bu baliq chiqmasdi!" — deb takrorlarmishman...»

Do'stlar, bugun sizga aytib bermoqchi bolganimiz qissa mana shu. Undan hissa chiqarmadim. Har kim o'zi chiqarsin deb o'yladim.

Lekin, baribir, yonalish berish uchun bir-ikki nuqtasiga to'xtalib o'tmoqchiman. Biz farzandlarimizni tarbiyalarekanmiz, "Pishiqroq bol", — deb orgatamiz. "Birovga haqingni oldirmagin", — deb uqtiramiz. Shu bois ular doim atrofdagilardan xavotirlanib yashashadi. Go'yo atrofdagi hamma ularga ziyon keltiradigandek.

Ular hech kimga yaxshilik qilmaydi va ularga ham hech kim yaxshilik qilmaydi. Biz ularga: "Pishiq bo'lgin", — deb tayinlar ekanmiz, ularga katta zarar keltirayotGANIMIZ haqida, ularga kelayotgan ne'matlarning yo'lini to'sib qo'yayotGANIMIZ haqida bosh qotirishimiz kerak, albatta. Men asosiy jihatlarini ta'kidlab ketyapman, aslida, voqeanning har bitta qismidan katta-katta hissalar chiqarasiz. Qayta-qayta eshitish kerak. Bir martada og'irlik qilishi

mumkin, ko'plik qilishi mumkin... To'xtab-to'x-tab eshitish kerakdir, balki.

Ikkinchisi, omonatga xiyonat qilmaslik — omonatdorlik haqida. Qarang, o'ttiz yildan keyin olib kelib berdi birovning haqqini!

Uchinchisi, ota-onaning qilgan amallari bolaning ham hayotiga ta'sir qilishi haqida. Otasini hech kim tanimasdi. Bir paytlar qilgan yaxshi ishi, ishonchli, omonatdor odam bilan do'st bo'lgani va u bilan birga ish qilganining foydasini bolasi ko'rdi. Bolasining butun hayoti o'zgarib ketdi. To'g'rimi?

To'rtinchisi, odamlarga yaxshilik qilish va buni chin dildan amalga oshirish. Bizni mol-davlatimiz qutqarib qololmasligi mumkin, lekin bir g'aribning ko'nglini olish, bir nochorning og'iriga yelka tutish qayerdadir boshimizga soyabon bo'lishi muqarrarligini esimizdan chiqarmasligimiz kerak.

Zebo Mirzayevaning quyidagi misralari bilan bugungi suhbatimizga yakun yasamoqchiman:

Eng so'nggi chaqamni gadoga berdim,  
Gado olib borib, Xudoga berdi...

Shunaqa, do'stlar. Ajratgan vaqtingiz uchun rozi bo'lasiz. O'zingizni ehtiyoq qiling.

## **Yetim Fahd qissasini bilasizmi?**

Bu qissani Salmon ismli katta bir olim aytib ber-gan ekan. Xullas, shayx Salmon bir kuni suhbatda: "Yetim Fahd qissasini bilasizlarmi?" — deb so'rabdi.

Fahd qoplon degani. Bu bir bolaning ismi ekan. Otasi o'lib, onasi boshqa insonga tur-mushga chiqib ketgach, Fahd yetim qolgan va Saudiya sahrosida bir zolim odamning xizmatini qilib, qo'yalarini boqib yurar ekan. Erta-labdan kechgacha uy ishlarini qilgani va qo'y boqqani uchun zolim xo'jayin unga bir hovuch chigirtka berar ekan. Chunki sahrodagi arablar chigirtka yer ekan-da.

Kunlarning birida bola ko'proq chigirtka yeb qo'yibdi. Bola-da. Boyagi odam buni bilib qolib, uni qattiq jazolabdi. Boshini toshlarga uribdi, oyog'ining ostiga olib ezg'ilabdi. Qattiq iskanjaga olibdi.

Bolaning yoshi oltida ekan. Masalan, men buni eshitganimda o'yladim... Bizni ham yoshligimizda jazolashgan, tog'rimi? Sizni ham jazolashgan. Hammamizni jazolashgan. Ota-onamizning jahlini chiqqarganimizda tarsaki tushirishadi yo turtib qo'yishadi, qattiq gapirishadi. Shunga dunyo ko'zimizga qorong'i bo'lib ketadi. Garchi aybdor bo'sak ham...

Endi u bolaning ahvolini tasavvur qilavering. Hech kimi yo'q. Ko'proq ovqat – chigirtka yeb qo'ygani uchun zulm ko'rdi. Tunda, sahroda yolg'iz. Boshini silaydigan, ovutadigan hech kimi yo'q olti yoshli bola. U ko'p ezilibdi va juda xavfli reja tuzibdi, ya'ni qochish rejasini. Bu katta odam uchun oson bo'lishi mumkin, olti yoshli bola uchun haqiqiy jasorat.

Ertalablari qo'ylarni bo'lib-bo'lib sug'ori-sharkan. Xo'jayini: "Bo'lib-bo'lib sug'or", – deb buyruq bergenida u qo'ylarning hammasini birdaniga suvga haydab, o'zi qochibdi. Qo-chaveribdi-qochaveribdi, quvib kelishmayaptimikin deb har zamonda orqasiga qarab qo'yarkan. Sahroda hech kim yo'q, kimsasiz... Tutib olishmasin deb kechgacha qochibdi. Holdan toyib, bir daraxtning tagiga kelib to'xtabdi. Qorong'i tushibdi. Yosh, murg'ak bola bir o'zi... Bo'rilar bo'lishi mumkin sahroda... Har xil nar-

Har qanday  
mashaqqatli yo‘l  
yorug‘likka olib  
chiqadi.

sa bo'lishi mumkin. Ya'ni atrof to'la xavf-xatar. G'ujanak bo'lib daraxtning tagiga yotib olibdi.

Tong otishi bilan yolda davom etibdi. Charchab, holdan toyib qolganida uzoqda bir daraxt ko'rinibdi. Unga yaqinlashsa, daraxtning tagida bir ayol turgan ekan. U ayolga ko'zi tushishi bilan Fahd hushidan ketibdi. Ayol chopib kelib, uni o'toviga olib boribdi. Suv berib, o'ziga keltiribdi. Eri xurmo tergani ketgan, uyda hech vaqo qolmagan ekan. Shunga qaramay, ayol suv bilan siylab, chanqog'ini qondiribdi, "Qayerga ketyapsan?" — deb so'rabdi. Onasi bosh-qaga turmushga chiqib ketgan-ku, u eri bilan Burayda degan joyda yashar ekan. Ayol yo'lni ko'rsatib yuboribdi.

Bola o'sha tomonga qarab ravona bo'libdi. Ancha yo'l yurganidan keyin Favvora degan bir shaharga yaqinlashibdi va yana bir chodirga duch kelibdi. Chodirda yangi kelin-kuyov yasharkan. Kelin bolani ko'rishi bilan darrov mehribonlik qilib uyiga olib kiribdi. Kuyov ov qilgani ketgan ekan. Bolaning sochlarni qisqartirib, cho'miltirib, kiyimlarini qaynatibdi. Bitlab ketgan ekan-da... Matodan kiyim qilib beribdi. Keyin eri ovdan quyon ushlab qaytibdi. Quyonni pishirib, bolaga ham berishibdi. O'sha kelin-kuyovning oldida o'tgan bir tun bola uchun butun umrga tatigulik bo'libdi. O'sha odam —

Fahd bu hikoyani nolib emas, odamlarga ibrat bo'lsin uchun aytib bergenida, voqeaning shu yeriga – o'ziga go'sht berilgan joyiga kelganida yuzi yorishib ketarkan... Doim chigirtka yeb yur-gan... Unga kimdir go'sht bergen...

Shayx Salmon: "Men bu qissani eshit-ganimdan beri, garchi o'sha kelinning otini bilmasam-da, uning nomidan har yili bir qo'y so'yaman. Har yili. Chunki Fahd mening otam bo'ladi", – degan ekan. O'sha chigirtka yeb yur-gan bola ushbu hikoyani so'zlab bergen shayx Salmonning otasi ekan. Shayx Salmon otasiga quyon go'shti bergen o'sha kelinning nomidan har yili bitta qo'y so'yar ekan...

Shayx Salmon aytarkan: "Bir kuni bir odam otamni qidirib keldi. Fahdni qidirib keldi. Bizni topdi. U o'sha zolim odamning o'g'li ekan. «Otam kasal yotibdi, qarib qoldi, kechirishingni so'rayapti», – dedi, "Men uni kechirib yubor-ganman. Unutganman u narsalarni. Xotirjam bo'lsin", – dedi otam». O'sha zolim odam o'lib ketganidan keyin ham Fahd: "Alloh rahmatiga olsin, marhamat qilsin", – deb uning haqiga duo qilgan ekan.

Bu qissadan ko'p hissalar chiqarsa bo'ladi.

Birinchisi, har qanday mashaqqatli yo'l yorug'likka olib chiqadi. Olti yoshidan iztirob chekib, tepki yeb, kaltak yeb, chigirtka yeb...

Bugun qarang, o'g'li dunyoning eng zabardast olimlaridan biri. O'zi bo'limgan-da buning...

Ikkinchisi, birovga qilingan zarracha yax-shilik necha barobar bo'lib qaytadi. Boyagi kelning muomalasini aytyapman. Shayx Salmonning har yili bitta qo'y so'yishini aytyapman. Bitta quyondan bir burda go'sht yegandir endi. Olti yoshli bola qancha yeydi? Ko'p yemaydi. Lekin javobini ko'ring.

Uchinchisi, biz biror jamiyatning vakili, biror millat vakili yomon bolsa, hammasini birato'la yomonga chiqarib yuboramiz. "He, ular unday, bular bunday", — deymiz. Lekin yuqoridagi voqealar sahroda bo'lyapti. Bittasi kim edi? Zolim edi. Urib-so'kib bir hovuch chigirtka uchun azoblagan ham o'sha sahrodan edi. Bolani yo'lda hushidan ketgan holida topib olib, uni o'ziga keltirib, Buraydaga ketadigan yo'lni ko'rsatgan ham o'sha sahrodan edi. Uni o'toviga olib kirib, mehribonlik qilib, quyon go'shti bilan siylagan ham o'sha sahrodan edi. Ya'ni bir jamoadagi, bir hududdagi biron odamning yomonligi o'sha joydagi hammani birato'la yomonga chiqarmaydi. Xuddi shuningdek, qaysidir oiladan biror yomon chiqsa, oilaning barcha a'zolari yomon degani emas. Bu qissadan yana ko'p hissalar chiqarish mumkin. Buni o'quvchilarning o'ziga qoldiramiz...

## **Hidlanishni istagan “gullar” yoxud...**

Bir jannatmonand maskan bor ekan. U yerda go'zal bir gul ochilgan ekan. Hamma unga mahliyo bo'larkan-u, lekin hech kim uning yoniga kelmas ekan. Tabiiyki, gul bundan xafa bo'larkan: "Nega hech kim mening yonimga kelmaydi? Axir go'zal bo'ssam. Nega odamlar menga uzoqdan qarashadi-yu, yaqinimga yo'lashmaydi? Nega meni hidlab ko'rishmaydi? Axir har bir gul bir bor bo'lsa-da hidlashlarini istaydi-ku... Nega unday qilishmaydi?".

Gul shunday xayollarga berilib atrofini kuzatibdi. Qarasa, yonida bir badburush qurbaqa o'tirgan mish. Odamni seskantiradigan darajada turqi sovuq emish.

Gul o'zicha shunday fikr qilibdi: "Bu qurbaqa yonimda bo'lgani uchun odamlar menga uzoqdan qarashyapti. Shuning uchun yonimga kelishmayapti. Shuning uchun meni hidlash-

mayapti. Shuning uchun mendan bahramand bo'lishmayapti".

"Iltimos, mening oldimda turma. Seni deb odamlar menga yaqinlashishmayapti", — debdi bir kuni gul qurbaqaga. Qurbaqa qattiq ranjibdi, lekin farosatli bo'lgani bois tortishib o'tirmay, gulning yonidan ketibdi.

Qurbaqa ketishi bilan gul niyatiga yetibdi, odamlarning unga munosabati o'zgaribdi. Kimdir uni ushlab ko'ribdi, kimdir hidlabdi, kimdir silab-siypalabdi... Oradan ma'lum vaqt o'tib gulning barglari qovjiray boshlabdi. Avvaliga bir yaprog'i xazon bo'libdi, keyin ikkinchisi, keyin uchinchisi... Oxir-oqibat gul butkul halok bo'libdi. Nega shunday bo'ldi? Chunki qurbaqa gulni nafaqat odamlardan, balki zararkunanda hasharotlardan ham himoya qilar ekan. Shuning uchun unga hech kim yaqinlasha olmas, shuning uchun go'zalligini saqlab turgan ekan. Tushundingizmi?

Endi atrofingizga bir nazar soling. Oiladagi, do'stlar o'rtasidagi, ishdagi munosabatlarga e'tibor qarating. Insonlarning o'z yaqinlarini xushlamasligi, o'zini ulardan baland tutishi, ayollarning eri belgilagan chegaralarni buzishga bo'lgan ishtiyoqi...

To'g'ri, yoningizdagи inson go'zalmasdir. Biroq uning qalbi go'zal bo'lishi, sizni turli ba-

O'zimizning kimligimiz  
o'zimizga ma'lum.

lo-qazolardan asrab turgan bo'lishi mumkin. U tomonidan qo'yilgan chegaralar sizni yomon nigohlardan asrayotgandir, balki. Tushunyapsizmi?

Birinchi navbatda narsalarning noxush tomonini ko'rganimiz uchun ham qarshimizdagi chegaralar bizga yoqmaydi. Bizga hamma narsa yoqishi shart ham emas, aslida. Ayrim narsalar yoqmaydi — nafsimizga og'ir keladi. Ibdatlar ham nafsga malol keladi ba'zan. Maqsad — og'irlik qilgan joylarini sabr bilan yengib o'tish, buyruqlarga itoat qilib, to'g'ri inson bo'lib yashash.

"Yonimdaliging menga yoqmaydi. Go'zalligimdan begonalar ham bahramand bo'lishsin. Sen maroqli suhbatdosh emassan. Men bundan yaxshirog'iga munosibman. Shunchaki senga rahmim kelgani uchungina bu yerda turibman. Aslida, balandroq joyga loyiqliman".

Agar qurbaqa bizga hasharotlarni yetaklab kelayotgan bo'lsa, har kuni ziyon keltirayotgan bo'lsa, bu boshqa masala. Lekin kimnidir tashqi ko'rinishi, ijtimoiy ahvoli, moliyaviy holati yoqmagani uchungina rad etish, uni yerga urish, uni inkor qilish boshimizga boyagi gulning kunini soladi...

Odam kim bo'lishidan qat'i nazar – erkakmi, ayolmi, yoshmi, qarimi – bu dunyoda haddini bilib yashashi kerak. Haddini bilmaydiganlar bu dunyo adolat ustiga barpo etilganini anglab olishlari talab etiladi. Haddimizni bilaylik. Eng to'g'ri yo'l shu. Eng avvalo, yaratuvchimiz Alloh azza va jallaning oldidagi haddimizni bilaylik. Isyon qilmasdan, buyruqlarini bajaraylik...

Turklar “shimarib ketibdi” deyishadi, bu bizdag'i burni ko'tarilib ketibdiga to'g'ri keladi... Biz xoliq zotga bosh egib yashaymiz. Bundan faxr tuyamiz. Bundan xursand bo'lamiz. Biz o'zimizga o'xshagan maxluqlarga emas, butun olamlarni yaratgan Allohning qarshisida bosh egyapmiz. U bizga ravo ko'rganiga rozi bo'lyapmiz. Inson haddini bilishining boshlang'ich nuqtasi shu. Keyin odamlar bilan munosabatda ham shu qoidaga amal qilamiz.

Yana bir bor ta'kidlayman: qarshimizdag'i insonga mendan yaxshiroq bolsa kerak deb qarashimiz zarur. Nima uchun? Chunki biz uning kimligini bilmaymiz. Aksincha, o'zimizning kimligimiz o'zimizga ma'lum. Shu bois uchun qarshimizdag'i odam kim bo'lishidan qat'i nazar, quyidagicha mulohaza yuritishimiz kerak: “Bu inson mendan yaxshiroq. Nima uchun? Chunki men uning kimligini

bilmayman. Balki, kechalari bilan yig'lab ibodat qilar, tavba-tazarrudan bo'shamas, savob amallarda bardavomdir".

Ana shunda jamiyat ham, odamlar o'rtasidagi munosabatlar ham sog'lomlashadi.

## **Kimning nima istayotgani ma'lum**

Bir arab shoiri podshoh ko'klarga ko'tarilgan qasida yozib kelibdi. Buni qarangki, podshoh turk bo'lib, arabchadan ham, forschadan ham xabari yo'q ekan, hatto birorta so'zni bilmash ekan. Shoир qasidani aytar ekan, uni maqtagan yerlarida podshoh mamnun bo'larkan, qarsak chalish kerak bo'lgan joylarida qarsak chalar-kan, minnatdor bo'lish kerak bo'lgan joylarida minnatdor bo'larkan.

Davrada saroy a'yonlari — vazirlar, ulam-olar ham bor ekan. Ular bundan hayron bo'lishibdi. Chunki podshoh arabchani bilmasligidan xabardor ekanlar-da. "Podshohimiz arabchani bilmasa, qanday qilib qarsak chalish kerak bo'lgan joyda qarsak chalyapti? Mamnun bo'lish kerak bo'lgan joyda mamnun bo'lyapti? Buning siri nimada? Yillar davomida arabcha va forschcha bilmayman deb bizni aldab keldimi-kan? Endi bu yog'i nima bo'ldi?" — deb ichlariga

g'ulg'ula tushibdi. Nega? "Podshohning oldida bilib-bilmay uni ranjitadigan tahqirli so'zlarni ishlatgan bo'lsak, buni sezib-bilib turgan bo'lsa, endi nima qilamiz?" — deb o'ylashgan-da.

Podshohning juda yaxshi ko'radigan bir xizmatkori bor ekan. O'sha xizmatkorga ot berishibdi, xachir berishibdi, tuya berishibdi, yana ko'pdan ko'p narsalar hadya qilishibdi va: "Podshohimiz arabcha biladimi yoki yo'qmi? Sen shu masalaga oydinlik kiritib bersang", — deb iltimos qilishibdi. Xizmatkor rozi bo'libdi va bir kuni ov paytida podshohning kayfiyati yaxshi ekanini bilib so'rabdi: "Podshohim, siz arabcha bilasizmi yoki yo'qmi? Agar bilmasangiz, qanday qilib shoir qasida aytayotganda uning ma'nosini angladingiz?". Podshoh qahqaha otib kulibdi va shunday javob beribdi: "U shoirning qarshimda qasida aytishdan maqsadi aniq edi: olqish olish, menga yoqish va buning orqasidan bir nimalik bo'lish. Men uning gaplarini tushunmasam ham, asl maqsadidan xabardor bo'lganim uchun shunga ko'ra harakat qildim. Ya'ni asosiysi so'z yoki gap emas, asosiysi maqsaddir. O'sha shoirni mening oldimga nima boshlab kelgandi? Qaysi maqsad olib kelgandi? Men shunga ko'ra harakat qildim".

Shamol pardaga  
kelib urilsa, pardani  
qimirlatadi. Gilamga  
kelib urilsa, gilamning  
changlari qoqladi.  
Suvga kelib urilsa,  
suvni to'lqinlantiradi.  
Barglarga kelib urilsa,  
barglar tebranadi.

Hammasing  
harakat-holi,  
qilayotgan ishi har  
xil. Lekin ularga bu  
ishlarni qildirayotgan  
kuch yagona, ya'ni  
shamoldir.

Bu hikoyani hozirgi kunda shunday holatlar ko'p uchrayotgani uchun aytyapmiz-da. Kimningdir, masalan, hokim buvaning oldiga borsak va "Hokim buva, sizning qilayotgan ishlaringiz tahsinga loyiq. Juda ajoyib ishlarni amalga oshiryapsiz, baraka toping. Sizdek insonlar yurtimizga suv va havodek zarur" qabilidagi bir qator navbatchi gaplarni ifodali qilib aytib berishimiz mumkin. Lekin aql-farosati joyida bo'lgan inson bu gaplarni nima uchun aytayotganimizni juda yaxshi bilib, nima dardi bor ekan deb kutib ham turadi.

Yana bir nozik jihat: asos bitta, maqsad bitta bo'ladi, yo'llar esa har xil bo'lishi mumkin. "U anavi yo'ldan yuryapti, bu esa manavi yo'ldan. Uning yo'li toshli, buning yo'li tikanli, buniki esa tuproqli", — deb ajratmasdan, natijalarga qarashimiz talab etiladi. Masalan, olimlar har xil yo'llar bilan bitta haqiqatni aytishi mumkin. Bittasi anglamagan jihatni boshqasi aytadi. Unisi anglamagan jihatni bunisi aytadi. Lekin oxir-oqibat bitta haqiqatni aytishadi.

Bunga bir misol: shamol pardaga kelib urilsa, pardani qimirlatadi. Gilamga kelib urilsa, gilamning changlari qoqladi. Suvga kelib urilsa, suvni to'lqinlantiradi. Barglarga kelib urilsa, barglar tebranadi. Hammasing harakat-holi, qilayotgan ishi har xil. Lekin ularga bu ishlar-

## Kimning nima istayotgani ma'lum

ni qildirayotgan kuch yagona, ya'ni shamoldir. Shunday ekan, bizning aytar so'zlarimiz asosiy narsa emas. Asosiysi bizga buni ayttirayotgan narsalardir.

## **Allohdan pul so'ragan odam**

Bir xat bor. Uni o'qisammi, o'qimasammi deb ko'p o'yladim... Bunaqa xatlar ko'p-u, lekin nimagadir shu xatni o'qib, bir narsa aytgim keldi. Xatni o'qiymen, keyin xat bilan bog'liq bir-ikki mulohazamiz bor.

Xat Bahodir ismli bir do'stimizdan.

«Assalomu alaykum! Iltimos, oxirigacha o'qing, — deyaptilar. — Sizga bir savol bilan murojaat qilmoqdaman. Bu savolmi yoki men tushgan vaziyatmi, bilmadim. Yaqindan boshlab men Uning borligiga ishonmay qo'ydim. So'radim, so'radim, so'radim — bermadi. Undan ko'p so'ramadim. Harakatimga yarasha bersa bo'ldi, lekin bo'lmasdi. Eng qizig'i, Uni eslamanagan, Undan so'ramagan insonlarda bu narsalar keragidan ortiqcha. Shunday qilib, menda savol paydo bo'ldi: nimagadir ega bo'lish uchun Uni eslash shartmikin?

Bu savol meni qiynamoqda! So'raganim – boylik. Bermagan – Yaratgan. Natijada Unga ishonchim pasaydi. Oxir-oqibat so'ramay qo'ydim va Uning borligini inkor eta boshladim. Endi xotirjamman. Oldin nimagadir umid qilib, bir kuni yaxshi bo'lib ketishini kutardim. Hozir esa bu his yo'q. Hozir uning berish-bermasligi muhim emas, boylik topishga bo'lgan intilishlarimni yanada kuchaytirishim, yaxshilashim kerak degan fikrdaman. Ayni paytda Usiz va e'tiqodsizman. Menga: "To boylik orqasida ekansiz, Uni hech qachon tanimaysiz", – deyishingiz mumkin. Balki, siz haqdirsiz... Lekin U bergenini bilmadim. Atrofga qarasam, jami-ki boylik egalari U bergani uchun emas, o'zлари to'g'ri tadbir ko'rganlari uchun barchasiga erishishgandek.

Ushbu holatdan bu dunyoning moliya ishlari Yaratganning emas, insonlarning o'z qolida ekan degan xulosaga keldim, shu tariqa kaminada hozirgi savol va holat yuzaga keldi. Garchi meni bilmasangiz ham, chiqishlarin-gizning birida anonim tarzda mening hozirgi vaziyatimga izoh berarsiz, balki? Sizga hozir e'tiqodsizman dedim. Lekin so'zimni salom bilan boshladim. Bu mening hali ham e'tiqodli ekanimdan emas, balki sizning e'tiqodingizga nisbatan hurmatimdandir».

Biz bu yerga imtihon  
qilingani kelganmiz,  
imtihon qilgani emas.

## Allohdan pul so'ragan odam

Maktub tushunarli. Bir inson o'zining holatini bayon qilyapti. "To'g'ri qilyapsiz, noto'g'ri qilyapsiz" degan fikr bildirishdan o'zimni tiyaman. Lekin bitta voqeani aytib bermoqchiman:

Rivoyat qilinishicha, kunlardan bir kuni Iso alayhissalom bilan Iblis — Shayton suhbat qilib qolibdi. Iblis: "Ey Iso, shu tepalikdan o'zingni tashla, ajaling yetgan bo'lsa, o'lasan, ajaling yetmagan bo'lsa, o'lmaysan, sendan nima ketdi? Har narsani taqdirga yo'yasan, har narsani bilaman deysan. Hamma narsa Allohdan deysan. E'tiqoding rost bo'lsa, tashla shu tepalikdan", — deganida Iso alayhissalom shunday degan ekan: "Ey Iblis, men bu dunyoga imtihon qilingani kelganman. Imtihon qilgani emas..." .

Biz Allohga uning bor-yo'qligini imtihon qilib iymon keltirmaymiz. Biz kimmiz o'zi? "Men bunday qilib ko'ruvdim, javob bo'lmasdi, demak, yo'q", — debsiz. Siz Allohnning bor-yo'qligini tekshirgani kelganmisiz bu dunyoga? Biz bu yerga imtihon qilingani kelganmiz, imtihon qilgani emas.

Duolarimiz qabul bo'ladimi, bo'lmaydimi; arziymizmi, arzimaymizmi; qadamimiz qayerda — to'g'ri joydami, noto'g'ri joydami; shuning uchun do'stimizga, ular yozgan maktubga mana shu hikoya bilan javob berishga harakat qildim va o'zimning fikrimni bildirishdan qoch-

dim. Chunki bu borada fikr bildirishga haddim sig'maydi. Bu mavzuda ustozlar bor. Katta-katta olimlar bor. Bu masalaning ilmiy jihatlarini har tomonlama tadqiq etib javob qiladiganlar bor. Bu borada ilmim yetarli bo'lmagani uchun shu hikoyani aytish bilan cheklandim.

## **Qizim, sen pok emasmisan?**

Xabaringiz bor, bundan bir oycha avval "Alloh dan pul so'ragan odam" nomli videolavha tayyorlagan va unda bir maktubni o'qib eshitirgandik. Maktub muallifi – Bahodir. U o'z hayotidagi ayrim muammolar sabab ichdan bir qadar tug'yonga, isyonga ketgani va Allohning borligiga qalbida shubha paydo bo'lganini yozgandi. Biz o'sha maktubga javob o'laroq bir hikoyani keltirgandik. Bu hikoyada Iso alayhissalom va Iblis o'rtasidagi bir suhbat aks ettilgan edi. Iso alayhissalom Iblisga: "Men bu dunyoga sinalgani, imtihon qilingani kelganman, imtihon qilgani emas. Ya'ni Allohning bor yo yoqligini imtihon qilgani kelmaganman. Bu yerga nafaqat men, balki butun insoniyat imtihon qilingani kelgan", – deydi.

Bugun dostimiz, ukamiz Bahodirdan yana maktub oldik va o'sha maktubni sizga o'qib eshittirishga qaror qildik.

"Assalomu alaykum, — deb boshlanadi maktub. — Sog'-salomatmisiz? Avvalambor, sizga rahmat demoqchiman. Men yuborgan maktubga munosabat bildirganingiz va vaqt ajratib alohida chiqish qilganingiz uchun. Sizdan iltimosim, ushbu xatimni ham o'qib chiqsangiz". Maktubga "Isyon" deb nom qo'yib-dilar.

«Isyon — inson tabiatida mavjud holat. Inson qachon isyon qiladi? Qachonki e'tiqodini ushlab turgan irodasining so'nggi manziliga yetganida. Sizga maktub yozganimda mening tabiatim isyon va norozilik holatida edi. Bu holatga kelishimga sabab harakatlarim va ehtiyojimning nomutanosib bo'lgani deb bilaman. Men haqimda biroz bo'lsa-da tasavvurga ega bo'lgandirsiz. Sizga haddim sig'ib bir savol bermoqchiman: hech o'ylab kordingizmi, mening bu holatga tushishimga nima sabab bo'lgan ekan? Balki, oylagandirsiz, balki, yo'q... Bu tomoni menga qorong'i.

Aslida, sizga o'sha maktubni yozishdan bir necha kun oldin yoqimsiz bir holatga duch kelgandim. Orzularim poymol bo'lib, mag'lubiyatga uchragandim. Bu men uchun ikkinchi jiddiy mag'lubiyat edi. Ikkisining ham sababi boylikda deb bildim. Tabiiyki, kimdandir nimanidir sorab bilgim keldi, o'zim qadrlagan inson sifatida

sizga yozishga va sizdan javob olishga qaror qildim.

Men uchun ozuqa kerak edi — ma'naviy ozuqa. E'tiqodsizlik bo'shliqdir. Men esa bo'shliqda uzoq qololmasdim. Chunki baribir Uning qahridan qo'rqaman! Ertalab turib, ota-onamga salom beraman. Ovqatlanib, duosini olaman. Demak, men e'tiqodsizlikka da'vo qilgan onimdan boshlab yaqinlarimning e'tiqodi, balki, men uchun yashagandir. Balki... Balki, bilmadim, nima deyishga ham hayronman... Lekin o'zimga qarab, fikrlarim qanchalar isyonga ketganini angladim. Bilasizmi, yaqinlarim mening bunday fikrda ekanimni hatto bilishmaydi. Balki, qachondir bilishar... Lekin bilishlarini istamas edim.

Shu orinda taqdirmi eslamoqchiman. Agar taqdir bo'limgaganida, men sizga xat yozmagan, siz esa javob bermagan, haddim sig'ib Yaratgan borligini imtihon qilgani emas, imtihon qilgani kelganimni anglay olmagan bolardim. Demak, taqdir bor ekanki, Yaratgan bu tushunchani qalbimga siz orqali yubordi. Demak, U belgi berdi. Ochiqroq aytganda, agar xatimga fikr bildirmaganingizda, yuqorida aytganim — bo'shliqda qancha vaqt qolib ketardim, bilmadim...

Men hali ham kurashdaman. Yana o'sha isyon bo'lmasligi uchun ham kurashdaman. Sizga kattakon rahmat, Abdukarim aka! Qachonlardir siz bilan yuzma-yuz ko'rishib, suhbatlashish nasib etishini Yaratgandan so'rab qolaman! Cheksiz hurmat bilan Bahodir».

Bu dostimiz Bahodirdan kelgan ikkinchi maktub. Uni ham o'qib eshittirdik va vaqtlanini ayamay bizga xat yozganlari uchun Bahodirga o'z minnatdorchiligidan bildiramiz. Biz istaymizmi, yo'qmi, qabul qilamizmi, yo'qmi – haqiqat har doim qaror topadi.

Bahodir taqdir haqida gapirdilar va bularning hammasini taqdirga yo'ydilar. Bahodirga o'xshab isyonga ketib, hayotidagi ayrim noqulayliklar, og'riqlar sabab o'zining-da, boshqalarning-da hayotini zahar-zaqqumga aylan-tirayotganlar atrofimizda juda ko'p...

Aslida, hech kim xatolardan xoli emas. Biz ularni unutib, ko'rib-ko'rmaslikka olib yashaymiz. Buni juda katta qusur deb bilaman.

Mana shu orinda bir hikoyani so'zlab bersam. Bu hikoya tomoshabinlarimiz uchun foydali boladi deb o'layman.

Kunlardan bir kuni "Al-Azhar" universitetining bir professor o'qituvchisi shaharni aylanishni istab qolibdi. U kishi universitet binosidan hech tashqariga chiqmagan, doim

E'tiqodsizlik  
bo'shliqdir. Men  
esa bo'shliqda uzoq  
qololmasdim.

ilm bilan mashg'ul bo'lgani uchun shahardagi o'zgarishlardan ham bexabar ekan.

Universitetdan chiqib, bir taksini to'xtatibdi, "Meni shahardagi xushmanzara joylaridan· biriga olib borib qo'ying, aylanib kongil yozmoqchiman, ancha bo'ldi shaharga chiqmaganimga", – debdi. Boyagi taksichi bir oz shumroq ekan. "Al-Azhar" universiteti o'qituvchilarining xos libosi bo'lib, kirakash ana shu libosidan uning kimligini bilibdi. Bir hazillashay debdi-da, domlani shahardagi ishratxonalaridan birining yoniga olib boribdi. "Domla, ro'paradagi mana shu bino masjid. Namoz vaqt kelganida shu yerga kirasiz", – deb yo'lida davom etibdi.

Domla bu gapga rostdan ham ishonibdi. U kishidan nega shubhalansin? Uning gapini nega muhokama qilsin? Bunga sabab yo'q deb bilgani uchun hamma gapni to'g'ri qabul qilibdi. Oddiy holat.

Shom namozining vaqtি kirishi bilan o'sha binoga qarab yo'nga tushibdi. Binoning eshidigan kirsa, chap tomonda bir yosh, xushbichim qiz o'tirganmish. Bu masjid muazzinining yo imomining qizi bo'lsa kerak deb azon aytilishini kutib bir burchakda o'tiribdi. Ana kutarmish, azon aytilmasmish, mana kutarmish, azon aytilmasmish.

Shom vaqtı qisqa bo'lgani uchun: "Muazzinning ishi chiqib qolgan, shekilli, o'zim o'qib qo'yaveraman", — deb turgan joyida azon aytibdi. So'ng boyagi qizga qarab: "Qizim, kel, jamoat bo'lib o'qib olamiz. Orqamga tur. Namoz vaqtı o'tib ketib qoladi. Tez-tez harakatingni qil", — debdi. Buni samimiyat bilan aytibdi. Boyagi qiz kelmabdi. U qiz hayron: "Bu odam kim? Nima uchun bu yerga keldi? Nega bu yerga kelib azon aytdi? Nega uni namozga chaqiryapti?". "Qizim, kelmaysanmi, turmaysanmi? Vaqt o'tib ketib qoladi", — debdi domla yana. Qiz kelmagach, uning xayoliga boshqa fikr kelibdi va so'rabdi: "Ha, pokmasmisan?". Ya'ni "oy ko'rganmisan?" degan ma'noda gapiribdi. Lekin qiz uni boshqacha tushunibdi. "Pokmasmisan?" degan gapni "Yomon ishlarning ichidamisan? Pok odam emasmisan?" degan ma'noda qabul qilibdi. Bu so'zdan qattiq ta'sirlangan, qattiq iztirobga tushgan qiz yugurib borib domlaning oyog'iga yiqlibdi-da, "Menga yordam bering!" — debdi.

Shunda domla undan hol so'rabdi va bu yer ishratxona ekanini, qiz shu ishratxonaning fohishalaridan biri ekanini bilibdi. "Qizim, bu yerlar yaxshi joy emas ekan. Bor, kiyim-kechagingni olib chiq, ketamiz bu yerdan", — debdi va uni shogirdlaridan birining uyiga joy-

lashtiribdi. Bir oz vaqt o'tganidan keyin bir yaxshi odamni topib, qizni turmushga uzatibdi.

Nega bu hikoyani so'zlab berdik? Biz hayotda egri yo'llarga kirib qolganlarni ko'rsak, ular dan yuz o'giramiz. Go'yoki biz to'g'ri yo'l damiz-u, ular adashib qolgan. To'g'ri yo'ldaligimiz uchun ulardan ustunmiz. Ular adashgani yoki isyonga ketgani uchun bizdan pastroqda degan munosabatda bo'lamiz. Bu munosabat juda noto'g'ri.

Aksariyat purhikmat hikoyatlarda, rivo yatlarda, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamdan kelgan hadislarda eshitganmiz ki, inson butun umr iymonda yashashi, lekin oxirgi lahzalarda iymonsiz bo'lib ketib qolishi mumkin. Inson butun umr iymonsiz yashashi, ammo Alloh oxirgi nafasida hidoyatga yetaklab qo'yishi mumkin... Ya'ni bu bizning qo'limizdag narsa emas...

Shuning uchun bunday insonlarni ko'r ganda o'zimizni ulardan ustun qo'ymasligimiz kerak. Qarang, otaxon "Pokmasmisan?" degan savolni u qizdan shubhalanib so'ramadi. "Sen buzuqsan, sen yomonsan, sen fohishasan" degan ma'noda aytmadni bu gapni. Unday o'y lamadi ham. Shu darajada to'g'ri ediki, uning "Pokmasmisan?" degan savolida "Sen hayz ko'r ganmisan?" degan ma'no bor edi. Lekin qiz buni qanday qabul qildi? O'zining pok bo'lgan payt-

Qizim, sen pok emasmisan?

larini — toza, bokira, guldek bo'lgan paytlarini esladi. Odamlar unga insondek munosabatda bo'lgan paytlarini esladi. Haqiqatini esladi. Birgina so'z uning hayotiga tuzatish kiritdi.

Biz ham o'shanaqa odamlarga duch kelganda nafratga, zardobga to'la so'zlarni emas, balki ularni yumshatadigan, qalblariga kirib boradigan so'zlarni ishlatsak, aksariyatining hayoti qaytadan to'g'ri izga tushib ketishi shubhasiz. Umuman, insonlar ozaro munosabatlarda qanchalar tavozeli, qanchalar odobli va marhamatli bo'lishsa, hayotlari ham shunchalar ranginlashib, go'zallashib boraveradi. Bugun sizga aytib bermoqchi bo'lganimiz mana shu edi. Bahodirga esa maktub uchun yana bir bor minnatdorchilik bildiramiz.

Salomat bo'ling.

## **Quloqsizlar**

Qaysidir zamonlarda yuz bergani aytildigan bu voqea, aslida, sodir bo'lмаган bo'lishi ham mumkin... Zotan, biz aytayotgan hikoyalarning hammasi hayotda yuz foiz bo'lgan deyotganimiz yo'q-ku. Asosiy maqsad — undan chiqariladigan hissa, foyda.

Qaysidir zamonlarda qaysidir bir mammalakat podshohi bo'lgan ekan. Uni farzandsizlik qiyarkan. Malikani ko'rsatmagan tabibi qolmabdi. Saltanatdagi jamiki tabiblar unga davo izlashibdi. Kunlardan bir kuni tabiblar ayolning shifo topganini va u endi farzandli bo'lishi mumkinligini aytishibdi.

Shoh xursandligidan terisiga sig'may ketibdi. Oradan ma'lum vaqt o'tib malikaning ko'zi yoribdi. Taqdirning o'yinini qarangki, cha-qaloq bitta quloq bilan tug'ilibdi. Bitta qulog'i yo'q ekan. Podshoh vazirlarni yig'ib, "Bu valiahd shahzoda bir quloq bilan tug'ildi. Erta bir kun davlatni boshqarsa, bir quloqli ekanligi unga xalaqit qilib qolishi mumkin — siyosatda, dav-

Ular xato ichida turib  
uyalmas ekan, nega  
siz haqning ichida  
turib uyalasiz?

lat boshqaruvida. Bunga qanday yechim topamiz?” — deb maslahat solibdi.

Vazirlardan biri g’alati bir taklifni aytibdi: “Podshohim, bugundan boshlab tug'ilgan jami-ki chaqaloqlarning bir qulog’ini kesamiz”.

Bu taklif podshohga ma’qul bo’libdi va o’sha kundan hamma chaqaloqlarning bir qu-  
log’ini kesa boshlashibdi. Bu vahshiylik uzoq davom etibdi. Avlodlar almashibdi va jamiyatda ikki qulqli odam qolmabdi.

Kunlardan bir kuni boshqa sultanatdan bir odam tashrif buyuribdi. Uning qulog’i ikkitaligi odamlarning ko’ziga g’alati ko’rinibdi, hatto: “Ey, falonchining ikkita qulog’i bor ekan”, — deb uning ustidan kula boshlashibdi.

Boyagi inson ikkita qulog’i borligidan uyalib, oxir-oqibat qulog’ini kesishlariga rozi bo’libdi.

Qissadan hissa shuki, biz ham hayotda ko’p masalalarda qulog’imizning kesilishiga rozi bo’lgan holatdamiz.

Tushuntirishga harakat qilaman. Ibrohim alayhissalomning qavmi shirkka berilgandi. Ibrohim alayhissalom ularga qo’shilishni istamadi. Lut payg’ambarning qavmi buzuqchilik-ka ruju qo’ygandi. Lut payg’ambar ularga qo’shilmadi. Shuayb alayhissalomning qavmi sudxo’rlik bilan band edi. Shuayb alayhissalom

ularga qo'shilmadi. Ya'ni qulog'ining kesilishiga rozi bo'lmedi.

Bir jamiyatda hamma odat qilib olgan, urfga kirgan narsa to'g'ri degani emas. Agar odamlardan ajralib tursangiz, bu sizni aybdor qilmaydi. Ular xato ichida turib uyalmas ekan, nega siz haqning ichida turib uyalasiz? Xatoning ichida turganlar uyalishi kerak. Ular buni normal qabul qilgan bo'lsa, bu ularni haq qilib qo'ymaydi. Ya'ni ko'pchilik bir narsaga kelishib, rozi bo'lib, bir ish bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, u har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Shuning uchun, do'stim, odam ikkita qulog'ini asrab qolishga harakat qilishi kerak. Shunda qulog'ingizning kesilishiga rozi bo'lmaysiz...

# Tikuvchini yaxshi ko'raman

Bir katta olimdan so'rashibdi:

— Sizga eng ko'p yoqadigan, siz eng ko'p e'zozlaydigan, ardoqlaydigan odam kim?

Olim:

— Tikuvchi, — deb javob beribdi.

Yana so'rashibdi:

— Atrofingizda shuncha aziz insonlar bor. Martabada, mol-mulkda, bilimda sizning darajangizga mos qancha odamlar bor. Siz bolsa ularning ichidan birortasini tanlamasdan, tikuvchini yoqtiraman deyapsiz — buning sababi nimada?

— Sababi shuki, doim o'zimga kiyim tiktirgani borsam, tikuvchi har safar mening bo'yimni boshqatdan o'lchaydi. Bir oydan keyin borsam ham yangitdan o'lchaydi, bir haftadan keyin borsam ham. Lekin siz va sizga o'xshaganlar odamlar haqida bir xulosaga kelib ola-

siz-da, umringizning oxirigacha shu xulosangizdan voz kechmaysiz, — degan ekan olim.

Bu kabi qarashlarimiz maqollarimizda ham aks etgan-da — hozir u maqolni aytmay qo'ya qolay — odamning asabiga tegadigan maqol. "Yoshligingda unday eding, bunday eding, yomon amallarni qilib yurganding. U yoqqa ketar paytingda o'zgarib qolding" degan ma'noda.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytganlar: "Qalblar o'zgarib turadi. Barg kabi hilpirab turadi. Bir u yog'i, bir bu yog'i".

Inson o'zgarishi mumkin. Alloh azza va jalla har qanday yomon insonni to'g'ri yo'lga boshlab qo'yishi mumkin. Unga hidoyat berishi mumkin. Uni yaxshi amallarga ko'mib tashlashi mumkin.

Yana bir qissa bor. Shu mavzuga taalluqli. Biz — odamlar juda shoshqaloqligimiz haqida...

Qotib qolganmiz. Insonlar haqida fikrlarimiz o'zgarishini istamaymiz. Insonlarni kechirishni istamaymiz. Boshqalardan ranjib yashash yoqadi bizga. Xafa bo'lib yashash, ozorlangan, qiynalgan odam qiyofasiga kirib olib, buni boshqalarga ko'stishga moyilmiz, afsuski. Go'yo hamma qiynalayotganimizni, azob chekayotganimizni bilsa, bizga rahm qiladigandek tuyuladi. Shuning uchun boshqalar

Siz va sizga  
o'xshaganlar  
odamlar haqida bir  
xulosaga kelib olasiz-  
da, umringizning  
oxirigacha shu  
xulosangizdan voz  
kechmaysiz.

haqidagi fikrimizni o'zgartirmaymiz. Kimdir yaxshi tomonga ozgarganini ko'rmaymiz, ko'-rishni istamaganimiz uchun ko'rmaymiz. Agar istaganimizda, yomon odamning ham yaxshi tomonlarini topgan bolardik. Biz esa yaxshi odamlarning ham yomon odatlarini topishga urinamiz. O'sha odatlariga urg'u berib, o'zimiz uchun uzil-kesil xulosaga kelib olamiz.

Inson o'zgaradi. Inson vaqt o'tgani sari o'zidagi kamchiliklarni tuzatib boradi. Alloh unga tuzalish imkonini beradi. Bunga kimnidir sabab qiladi.

Bir odam bor ekan. O'tgan-ketganning hammasiga taom berarkan. Bir kuni bir olim odamni mehmon qilib tursa, ko'chadan bir johil o'tib qolibdi-da. U johilni ham mehmon qilibdi. Mehmon Allohnинг ismini (Bismillahir rohmanir rohiymni) zikr etmasdan ovqatlanishni boshlabdi. Ovqat berganning jahli chiqib, "Kallasini olib tashlayman", — deb tursa, olim: "Ehhe, bir kosa ovqat berib qo'yib, kallasini olaman deysan. Alloh azza va jalla bunga ellik yildan beri rizq beradi. Ellik yildan beri bu Allohni eslamaydi. Lekin haliyam tirik yuribdi. Sen bir kosa ovqat bergen kishi bolding-da endi, birdan kallasini olmoqchisan", — debdi. Biz ham shunaqamiz. Johilliklarimiz o'zimizni bilimli hisoblashimiz, o'zimizga qo'yib olgan

bahomiz ortiga berkitilgan. Shu qadar johilmizki, johilligimizni anglamaymiz.

Bugungi suhbatimizga xulosa sifatida bir hadisni aytib bermoqchiman. Ushbu hadisni Abu Abdurahmon Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu rivoyat qiladi: "Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilarki: «Undan o'zga hech qanday iloh yo'q bo'lgan Allohga qasamki, sizlardan biringiz jannat ahlining amallarini qilib yuradi. Hatto u bilan jannat o'rtasida bir gazgina masofa qoladi. Shunda uning kitobidagi yozuv vaqtি yetib (ya'ni qadaridagi yozilgan narsa kelib) u do'zax ahlining amalini qilib qo'yadi-da, do'zaxga kirib ketadi. Sizlarning yana birovlarining do'zax ahlining amallarini qilib yuradi, hatto u bilan jahannam o'rtasida bir gazgina masofa qoladi. Shunda uning kitobidagi yozuv g'olib kelib (qadariga yozilgan narsa), u inson jannat ahli amalini qiladi-da, jannatga kirib ketadi" (Buxoriy va Muslim rivoyati).

Biz bilmaymiz – bir soatdan keyin nima sodir bo'lishini, boshimizga nima kelishini, faqat Allohdan yalinib-yolvorib hadisda ta'riflangan kimsalarining holiga tushib qolmasligimizni so'rashimiz kerak.

Hali bu haqida domlamiz bilan gaplashib o'tirganimizda u kishi aytdilarki: "Inson ham o'ziga nisbatan, ham boshqalarga nisbatan

qachon xotirjam bo'ladi? Qachonki jannatga birinchi qadamini qo'ysa, o'zining hayotidan, qilayotgan amallaridan istaganicha xotirjam bo'laversin. Ungacha xotirjamlik yo'q".

O'zidan, hayotidan xotirjam bo'lмаган одам бoshqalarning hayotini muhokama qilmaydi. Boshqalarni muhokama qilmaydi. Muhokama qilsa ham, boshida aytganimiz tikuvchidek ish tutadi: har safar yangidan o'lchaydi. Har safar yaxshi jihatlarni, yaxshi to-monga o'zgarishlarni ko'rish uchun qaraydi. Yomonliklarni, chirkinliklarni, xatolarni qidirish uchun emas...

## Biz ham shundaymiz

Bir bug'doyning donasi yerga — tuproqning ichiga tushganda: "Qayerga tushdim?" — deb o'ylarkan. Bir tasavvur qilsak: u keyin unib chiqadi — yam-yashil, go'zal niholga aylanadi; shamollarda tebranadi, yomg'irlarni his qiladi, o'sadi. Keyin hayot biroz qizdiradi. U pishadi. O'sha payt bug'doy o'laydi: "Bo'ldi, pishdim — yetildim".

Keyin uni tegirmonga olib borishadi. Ikki-ta toshning o'rtasiga olib, maydalab ezishadi. Keyin un bo'ladi. Toshning orasida: "Bu nima azob?!" — deydi-da. Keyin qarasa, unga aylana-di. "Endi qutuldim, shekilli", — deydi. Keyin ikki-ta qo'l keladi-da, uni mushtlab-mushtlab xamir qiladi. Mushtlanayotganda: "Ne azob?" — deydi. Xamirni damlab qo'yasiz-ku. Tindirib qo'yil-ganda: "Qutuldim, shekilli", — deydi. Keyin yana ikkita qo'l keladi-da, non qilishni boshlaydi. Har xil shakllar beriladi. Chekich urishadi. "Bu nima azob?" — deydi. Keyin ustlariga suv sepishadi. "Endi qutuldim", — deydi tandirning qizib tur-

ganidan xabari yo'q. Suv, yog surtishayotgani-da: "Oh, naqadar rohat!" — deb turganida qizib yotgan tandirga olib borib qarsillatib yopishadi. Yana: "Bu qanday azob?" — deb noliyotganida bir go'zal non tayyor bo'ladi. Dasturxonga kela-di.

Bizning hayotimiz ham xuddi shunaqa. Yoshligimizda hayotni tanib boramiz. Ozgina qiyinchilik kelib, "Ha, bu hayot shundan iborat ekan-da", — deganimizda toshlarning orasi-ga kirib ketamiz. Keyin qo'llarning orasiga tushamiz. Hayot shu tariqa bizni tarbiyalaydi. Shu tariqa qiynalib-qiynalib pishadi inson.

Shu yerda bir voqeani aytishni joiz deb bildim. Bir baxtli oila bor ekan. Bir sabab bilan ayolning ko'zi operatsiya bo'lib, ko'rmay qolib-di. Bu holat turmush o'rtog'ini qattiq ranjitibdi. U dengizchi ekan. Uzoq safarlarga ketadi-ku dengizchilar.

"Men bolmasam, ayolim nima qiladi?" — deb ishidan bo'shabdi. "Oxirigacha ayolimga mehrli bo'laman, muhabbatli bolaman", — debdi.

Ayol ko'p siqilibdi. "Meni deb turmush o'r-tog'im ishidan ketdi. Meni deb qiynalyapti. Har kuni menga qarashga majbur bo'lyapti. Uni baxtsiz qilib qo'ydim. U bo'ldi, bu bo'ldi", — deb o'ylab so'lib boribdi. Rangida rang qolmabdi.

Turmush o'rtog'i ayolini hayotga qaytarishni istabdi, ko'nglini olmoqchi bo'libdi, lekin ayol eshitmabdi, tobora jahldor bo'la boribdi. "Melandxoliya" — tushkun kayfiyati kuchayaveribdi.

Dengizchi o'zicha choralar o'yabdi va ayoliga:

— Eski ishingga qaytmasang bo'lmaydi, — debdi.

— Qanday boraman ishimga? Axir, ko'zim ko'rmaydi-ku!

— Yo'q, sen boraver. Kuching yetadi. Ishingni qila olasan.

— Borolmayman.

— Seni o'zim olib borib qo'yaman.

Har kuni ko'zlar ojiz ayolini ishiga olib borarkan, qaytarib olib kelarkan. Olib borarkan, olib kelarkan.

Lekin ayolining yuzi hech kulmasmish. Baribir, minnatdor bo'lmasmish. Ishiga o'rganibdi, boshqa bo'libdi... Qarasa, bo'lmayapti.

Bir kuni er ayoliga aytibdi:

— Endi seni ishingga olib borib, olib kelolmayman. O'zing borib kelasan.

— E, qanday borib kelaman? Avtobusga qanday chiqaman, qanday tushaman?

— Sen kuchlisan, uddalaysan. Qo'lingdan keladi.

“Sevaman”lar,  
“yonaman”lar,  
“kuyaman”lar aytilishi  
shart emas.

Ayol o'zi avtobusda ishga borib-kela boshlabdi. Kunlardan bir kuni avtobuschi bilan gaplashib qolibdi. Avtobuschi:

— Bir yigit bor — sizga qattiq mehr qo'ygan, lekin hech aytolmaydi, — debdi.

— Qanaqa yigit?

— Har kuni avtobusga chiqqanizingizda orqangizda bir dengizchi o'tiradi. Avtobusdan tushayotganizingizda kuzatib turadi. Darrov ko'chaning u betiga o'tadi. Sizning o'tishingizni kuzatadi — ishxonangizgacha kuzatadi. Ishxonaga kirganiningizdan so'ng ortingizdan qo'lini siltab qo'yadi. Kechki payt ishdan chiqishingizda yana kutib oladi. Chiqishingiz bilan ortingizga kelib o'tiradi. Yana uyingizgacha kuzatib qo'yadi. Birga ketadi. Shu qadar sevadiki, hali kelmay qolgan kuni bo'lмаган.

Hayot ham, aslida, xuddi mana shunday himoya qiladi. Mana shunday tarbiyalaydi. Bizni majbur qiladi nimalarnidir tushunishga, nimalarnidir anglashga. Xuddi o'sha dengizchiday mehribon.

Ko'zlar ojiz ayol har safar: "Yo'q", — dedi. "Ishga bormayman. Qanday ishlayman? Ko'zim ojiz. Yo'q", — dedi. Erining olib borib, olib keli shiga ham ko'nmadni. Oxiri hatto ishga mustaqil borib keladigan bo'ldi. Lekin turmush o'rtoq'i uni bir lahza bo'lsin nazoratsiz qoldirma-

## Biz ham shundaymiz

di. Mehr-muhabbat ham shunday. Biz uni ko'rishimiz, bilishimiz shart emas, uning otlari, ismlari aytilishi shart emas. "Sevaman"lar, "yonaman"lar, "kuyaman"lar aytilishi shart emas. Aytilsa, balki, yolg'on bo'lar. Amalda isbotlangani haqiqiy bo'ladi...

## **Allohim, yomg‘ir yog‘dirma**

1999-yil... Talaba edim. Toshkentda 40 – 50-yillarda qurilgan bir eski uyda yashardim. Hovli. Bir kuni ertalab ko‘zimni ochsam, ko‘chada yurgan oyoqlar ko‘rinyapti. Keyin bir nechta odamning egilib qaraganini ko‘rdim. Hayron bo‘ldim. Uyda yotgandim-ku. Ko‘chadagi odamlarni ko‘ryapman. O‘zimga kelib qarasam, eski uyning devori ko‘chaga qarab yiqlibdi – bir qismi. Yomg‘ir yog‘ganida qulagan-da. Odamlar: “Nega bu uy teshilib qoldi?” – deb hayron bo‘lib qarashayotgan ekan.

O’sha payt lattalar bilan, yana bir nimalar bilan devorni amallab tiklab qo‘ydik. Shundan keyin puxta bo‘ldik. Konserva idishini deraza-ga qo‘yib qo‘yardim. Yomg‘ir yog‘sa, taqir-taqir qiladi-ku. Darrov tashqariga chiqib turardim. Ikki yil shunaqa yashadim. Yomg‘ir yog‘sa, tashqariga chiqib turardim. “Uy yiqlib tushishi mumkin” degan xavotir bilan.

Keyin-keyin, o'ylashimcha, ana shu yerlarda tasavvur rivojlangan. Yomg'irda... Ajib davrlar bo'lgan. Hamma talabalarning hayotida ham shunga o'xshash qiziqarli voqealar bo'ladi.

Endi asosiy voqeaga o'taman: bir qishloqda ancha payt yomg'ir yog'mabdi. Olimlar: "Bu yil qish qattiq keladi, yog'ingarchilik juda mo'l bo'ladi, hozirlik ko'ringlar", — deyishiga qaramay, hech yomg'ir yog'masmish. Hatto yomg'ir duolari o'qilsa ham, qo'ylar so'yib, jamoa-jamoa bo'lib so'ralsa ham, butun sabablari qilinsa ham yomg'ir yog'masmish.

Keyin, bir olim aytibdi: "Bu yerda bir sir bor. Uyma-uy yurib, hammadan hol-ahvol so'rab chiqaylik. Yomg'ir yog'mayotganining bir sababi bo'lishi kerak. Masalan, bir yillar shunaqa bir voqeа bo'luvdi, bir it ko'prikning tagida bolalab qo'yan ekan. Qish ularga sovuq kelmasligi uchun Alloh o'sha payt yog'ingarchilikni kamaytirgan degan xulosaga keluvdik. Balki, bu yil ham biz bilmayotgan bir muammo bordir".

Shu tariqa uyma-uy kirib-chiqa boshlasibdi. Bir uyda ikki qizi bilan yashayotgan bir ayolni uchratishibdi. Turmush o'rtog'i ancha yillar avval halok bo'lgan ekan. Juda qiynalib yashar ekanlar. Olim so'rabdi:

— Qizlarim, sizlar hech duo qilasizlarmi?

Kattasi aytibdi:

Qorni to‘q yuzlab  
odamlar yig‘ilib olib,  
soatlab qo‘lini ko‘kka  
ko‘tarmaydimi! Ular  
istayotgan narsani bir  
mazlum istamayotgan  
bo‘lsa, Alloh, albatta,  
mazlumning duosini  
qabul qiladi.

- Albatta, duo qilamiz.
- Nima deb duo qilasizlar?
- Allohim, yomg'ir yog'dirma deb duo qilamiz.
- Nega?
- Chunki yomg'ir yog'sa, tomimizdan chakka o'tib, uymizning ichi suvga to'ladi. Yashab bo'lmay qoladi.  
Kichkinasidan so'rashibdi:
  - Sen ham duo qilasanmi?
  - Ha, duo qilaman.
  - Nima deb duo qilasan?
  - Men ham: "Allohim, yomg'ir yog'dirma-gin. Bizga rahming kelsin", — deb duo qilaman.
  - Nega?
  - Oyog'imdan suv o'tib ketadi. Oyoq kiyim-mim bir ahvolda.

Biz ham shuni aytyapmiz. "U bo'lmayapti, bu bo'lmayapti. Yomg'ir yog'mayapti, qor yog'-mayapti", — deyishdan oldin odamlardan hol so'rashimiz, tomlarni butlab qo'yishimiz kerak. Majoziy ma'noda aytyapman. Oyoq kiyimlari butunligiga ishonch hosil qilishimiz kerak. Ana undan keyin duolarimiz qabul bo'ladi. Alloh kimning duosini birinchi qabul qiladi? Albatta, mazlumning duosini. Albatta, qiyin ahvolda bo'lgan odamning duosini.

Butun odamlar yig'ilib duo qildi yomg'ir so'rab — bo'lmedi. Ikkita qizaloq: "Allohim, yomg'iryog'dirma. Yomg'iryog'dirsang, qiynalib qolyapmiz. Tomimizdan chakka o'tyapti. Oyo-g'imizdan suv o'tyapti, o'zing mehribonsan", — degandi, ularning duosini o'sha zahoti ijobat qildi. Tushundingizmi? Shuning uchun birinchi navbatda miskinlar, dard chekayotganlar, no-haqlikka uchragan, e'tiborsiz tashlab qo'yilgan odamlarning ahvolini so'rash kerak. O'shanda bizga yaxshilik keladi. Qorni to'q yuzlab odamlar yig'ilib olib, soatlab qo'lini ko'kka ko'tarmaydim! Ular istayotgan narsani bir mazlum istamayotgan bolsa, Alloh, albatta, mazlumning duosini qabul qiladi. Biz ham doim qiyin ahvolda bolgan odamlarning yonida bo'lishimiz kerak. O'zimiz uchun taraf tanlamoqchi bolsak, har doim qiyin ahvoldagilarning tarafiga o'tishimiz kerak, ular tarafida bo'lishimiz kerak. Nega? Chunki qiynayotgan taraf — kuchli taraf. Mo'min-musulmon inson, to'g'ri inson, vijdonli inson har doim yiqligan odamning yonida turadi. Qiynalayotgan odamning yonida turadi. Tomidan suv o'tayotgan, oyoq kiyimi teshik, libosi yirtiq, qorni to'ymayotgan, non topishga qiynalayotgan odamlarning yonida bo'ladi. Ularga marhamatli bo'ladi, qo'lidan kelgancha

yxshilik qiladi, o'zida borini ular bilan bo'lishadi. O'shanda yaxshi bo'ladi.

Shuning uchun yana bir marta atrofimizdagi yomg'ir yog'masligini so'rayotganlar, yomg'ir yog'ishiga qarshi bo'layotganlarning ko'nglini so'rab qo'yishimiz kerak. Bu birinchi o'rindagi vazifamiz.

## **Shuncha til bilarkansiz-u...**

Dunyoda ikkita narsa juda oson: birinchisi – yiqilgan daraxtning ustiga chiqish, ikkinchisi – yiqilgan odamni tepkilash...

Buyuk yozuvchi Gabriel Garsia Markes saraton kasaliga chalinadi, shifokorlar unga: “Bu dardning davosi yo‘q”, – deyishganida juda tushkunlikka tushib qoladi. O’sha paytlarda bir jurnalist u bilan suhbat qiladi va bir nechta savol beradi. Savollarga javoblarni yig‘ib, “Gabriel Garsia Markesning insoniyatga so‘nggi maktubi” deb nomlaydi. Markes aytadiki: “Bir inson boshqa bir insonga yuqorida qarashi faqat bittagina holatda mumkin, qachonki yuqorida qarayotgan inson pastdagi insonga qo‘lini cho‘zib, turg‘izib qo‘ymoqchi bo‘lsa”. Ya’ni yordamga muhtoj odamga yoki yiqilgan odama qo‘l cho‘zish, uni turg‘izib qo‘yish uchungina yuqorida qarash mumkin. Boshqa hech bir holatda bir insonning boshqa insonga yuqori-

dan qarashga, kamsitishga, izza qilishga haqqi yo'q.

Umr atalmish yo'lda uchraydigan odamlarning aksariyati biz uchun qandaydir vazifalarni o'tab ketadi, biz ham kimningdir hayotida paydo bo'sak, o'sha vazifalarni o'taymiz. Hech kim hech kimning hayotida, hech kim hech kimning yo'lida shunchaki paydo bo'lib qolmaydi.

Bir odam bor ekan. Juda ko'p tillarni bilarkan: ingliz, fransuz, rus, o'zbek, arab, forsiy tillarni. Bir kuni daryoning bir qirg'og'idan boshqasiga o'tish uchun qayiqqa chiqibdi va qayiqning egasidan: "Nechta til bilasiz?" — deb so'rabdi. U odam: "Bitta", — debdi. "Eh, attang, umrni bekorga o'tkazib yuboribsiz. Inson bu dunyoga kelib, bor-yo'g'i bitta tilni biladimi? Til o'rgansangiz bo'lmaydimi? Eshkak eshish ham ishmi?" — debdi. Albatta, qayiqning egasi xafa bo'libdi. Ichida biroz o'ksibdi. Lekin bir payt havoning avzoyi buzilib, shamol turib, yomg'ir yog'ib, daryo to'lqinlana boshlabdi. Boyagi ko'p tilni biluvchi odam qo'rqib, haya jonga tushibdi. Eshkak eshayotgan odam indamay eshkagini eshib ketaveribdi va aytibdiki: "Do'stim, endisiz Yaratganga yaxshilab duo qiling. Bo'lmasa, omon chiqishimiz dargumon". U odam: "Qaysi tilda duo qilsam ekan? Qaysi tilda aytsam, tez-

Hech kim hech  
kimning hayotida,  
hech kim hech  
kimning yo'lida  
shunchaki paydo  
bo'lib qolmaydi.

roq qabul bo'larkin?" — debdi. Shunda qayiqchi: "Siz juda ko'p tillarni o'rganibsiz-u, lekin qalb tilini o'rganmabsiz. Odamlarning qalbiga ozor bermaslik tilini o'rganmabsiz", — degan ekan.

Biz ham gohida bilib-bilmay o'zimizga katta baho berib yuboramiz. Kimgadir yuqorida qaraymiz. Boshqalarni o'zimizdan quyida deb o'ylaymiz. Bu juda katta xato ekanligini vaqt-soati kelganida albatta tushunib yetamiz. Bir insonning qalbini og'ritish, bir insonni xafa qilish, bir insonni mulzam qilish juda qiyin, aslida. Bunday yashashning o'zi qiyin. Kechalari tinch uslashning o'zi qiyin. Shuning uchun imkon qadar insonlarga yaxshi gapirish kerak. Yaxshilik ulashish kerak. Hech qursa, til bilan ziyon yetkazmaslik kerak.

## **Qotgan qalb nimaga o'xshaydi?**

O'ttiz to'qqiz yillik umrim ortda qoldi. Yaqinda qirqni qarshilayman. Oldinda qancha vaqtim borligi esa mavhum. Shu jihatdan inson uchun tarix va kelajak emas, balki ayni shu buguni muhimdir. Insonni inson qilib turadigan omil uning bugungi amalidir, qalbining bugungi holatidir.

Kuni kecha ustozimiz aytdiki, qalb insonning kaftiga o'xshaydi. Uni asrash haqida o'y lamassak, bitta barmoq yopiladi. Keyin ikkinchiisi, uchinchisi, to'rtinchisi va beshinchisi, oxiri musht bo'lib tugiladi va ochilmaydi. Shuning uchun aqalli bittasini ochiq tutishga harakat qilishimiz kerak. Imkon bo'lsa, hammasi ochiq turgani yaxshi... Qalbi bilan aloqani uzgan insonga aylanib qolishdan qo'rqishimiz kerak. Qalbi vujudini tark etgan, mutlaq unutilgan va tashlandiq bir holga kelgan kimsa bo'lib qo-

Qalbimiz qo‘limizga  
o‘xshar ekan.  
E’tiborsiz qoldirsak,  
bittasi yopiladi. Yana  
e’tibor bermasak,  
ikkinchisi, uchinchisi,  
to‘rtinchisi,  
beshinchisi yopiladi.  
Oxiri musht bo‘iib  
tugiladi. Hech narsani  
qabul qilmaydi. Hech  
narsa bilan erimaydi.  
Qotib qoladi...

lishdan saqlanish uchun bu haqda bugun bosh qotirishimiz kerak.

Bu gaplar kim uchundir biroz balandparvoz tuyulishi mumkin. Lekin menga unday tuyulmaydi. Masalan, bir do'stim kelib, mendan qalbimning holatini so'rasha, men uni yolg'onchi yoki nosamimiyl odam hisoblamayman. Aksincha, u menga samimiy ko'rindi.

Biz zamonaviylik haqida gapiramiz. Masalan, hamma narsaning eng oxirgi modelini ishlata diganlar zamonaviy odamlar degan bir qadar galiz tushuncha bor. Mening fikrimcha, zamonaviy odam ertangi kuni haqida ko'proq mulohaza yuritadigan, ertangi kunini puxta qiladigan odamdir. "Falon ishni puxtalab qo'ygin", — deymiz-ku.

Bir inson uchun eng yuqori daraja bu dunyoni anglashdir. Eng zamonaviy odam, eng salohiyatli odam o'ylashi kerak bo'lgan eng muhim narsa — u dunyo. U dunyoda bizning maqomimizni belgilab beradigan asosiy narsa — qalb. Nega? Bu dunyodagi amallar qalb bilangina tirik. Bolmasa, unda mantiq yo'q. Masalan, namoz o'qiyapmiz. Xayolimiz boshqa joyda. Qalbimiz bilan, butun borlig'imiz, shuurimiz bilan u yerda emasmiz... Axir biz bu kabi amallarga qalbimiz bilan kirishishimiz kerak — faqat jismimiz yetarli bolmaydi. Shu-

ning uchun zamonaviy odam o'laroq, salohiyatli odam o'laroq, ertasini o'ylaydigan odam o'laroq qilinadigan eng muhim ishimiz qalbni tirik ushlashdir.

Qaytaraman, qalbimiz qo'llimizga o'xshar ekan. E'tiborsiz qoldirsak, bittasi yopiladi. Yana e'tibor bermasak, ikkinchisi, uchinchisi, to'rtinchisi, beshinchisi yopiladi. Oxiri musht bo'lib tugiladi. Hech narsani qabul qilmaydi. Hech narsa bilan erimaydi. Qotib qoladi...

## Muvaffaqiyat siri: zanjirni uzmang!

Biz yaxshilikni yaxshi insonlarga qilishga intilamiz. O'zimiz yomon deb hisoblaydigan insonlardan, axloqida bizga yoqmaydigan qu-surlari bor kishilardan vabodan qochgandek qocharmiz.

Aslida, qanday bo'lishi kerak? Ya'ni bu qanchalik to'g'ri demoqchiman. Mening nazarimda, biz yaxshilik qilishda davom etaverishimiz kerak. Qarshimizdagi odam yaxshi bo'lmasligi mumkin. Lekin o'zimizni yaxshi deb bilmiz-ku. Shu bois yaxshilik qilishga qodir odam sifatida odamlarni ajratmasdan yaxshilik qilishda davom etishimiz talab etiladi. Hatto bizga yomonlik qilganlarga ham yaxshilikni sog'inishimiz kerak deb o'ylayman.

Bir ish davomiy bo'lishi uchun uning naqadar muhimligini unutmasligimiz kerak. O'shanda u uzuliksiz davom etadi. Zanjirni uzmaslik texnikasi bor. Masalan, deylik,

Do'stlar, biz sirot  
ko'prigidan o'tamiz.

bugun o'zimga so'z berdim: "Men endi hech bir namozimni qazo qilmayman". Namozni besh vaqt o'qiyapman. Hammasini o'z vaqtida o'qishga, qazo qilmaslikka tirishishim kerak. Ertaga ham qazo qilmayman. Bitta zanjirga ikkinchisi qo'shildimi? Uchinchi kuni ham qazo qilmayman. Uchinchi zanjir qo'shildi. To'rtta, beshta, o'nta, yuzta... Keyin yuzta zanjirni uzmasdan olib kelsangiz, orada bittasi uzilib qolishini istamaysiz. Yuz kundan beri biror marta namozni qazo qilmay, o'z vaqtida o'qib kelyapman. Qanday qilib uzaman? Tushunyapsizmi, davomiylik bizga katta kuch bag'ishlaydi. Shuning uchun zanjirni uzmaslik shart. Bu qoida yaxshilikka ham taalluqli. "Bugun bir odamni topaman va unga yaxshilik qilaman", — deb o'zimizga so'z bersak va buni amalga oshirsak naqadar ajoyib! Qiziq-ku bu! Zo'r-ku! O'sha zanjirni uzib qo'ysak, bir kuni kimgadir yordam bera olmay qolsak, hayotimizda muhim bir narsani yo'qotib qo'ygandek bo'lamiz. Odamlar bor, yomonliklarda ham zanjirni uzmayotganlar bor.

Qollarida muvozanatni saqlashga yordam beradigan uzun yog'ochlari bilan qalin ip yoki simarqonda harakatlanayotgan dorbozni tasavvur qiling. Ikkita baland binoni tasavvur qiling. Uni ko'rsak, qanchalik vahshatga

tushamiz. Dordagi biz emasmiz, boshqa odam. U ehtiyotini qilib qo'yan. Oyog'i toyib ketsa ham, yerga tushmaydi, osilib qoladi. Shuni bilganimiz holda baribir hayajonlanamiz, to'g'rimi? "Yiqilib ketmasin, yerga tushmasin", — deb tahlikaga tushamiz.

Do'stlar, biz sirot ko'prigidan o'tamiz. Qildan ham ingichka bo'lgan sirot ko'prigidan. Ostida jahannam olovi yonib turgan ko'priidan o'tamiz... Nega uni eslab bugun tahlikaga tushmaymiz, "O'ta olamanmi, yo'qmi?" — demaymiz?.. Alloh o'sha kuni hammamizga rahm qilsin.

## **Shu qadar xotirjammizki...**

Ibrohim Sakron bir kitobida qahramon tilidan yozadi: «Bolamni ko'tarib zinadan tushayot-ganimda oyog'im toyib ketdi va yiqila boshladim. Shu payt o'zim bilmagan, o'zim sezmagan holda o'sha yiqilish jarayonida bolamni himoya qildim va hech bir ziyon yetkazmasdan uni yerga qo'ydim. U ham hech narsa bo'lmagandek yurishda davom etdi. Mening ahvolim achinarli edi. Hamma joyim shilingan, yorilgan, ko'kargan, qonagan...

Men buni o'zim istab, "Bolamni asrashim kerak" degan xayol bilan qilmadim, balki hammasi tabiiy ravishda yuz berdi. Ichimdan kelgan qandaydir bir his ta'siri ostida yiqilish paytida hatto muvozanatni saqlashga ham urinmadim. Instiktiv ravishda bolamni himoya qildim. Yerga qo'yishim bilan unga ziyon-zahmat yetmagani ma'lum bo'ldi.

Boshqa bir kuni ishdan keldim. Qornim juda och edi. Kutishga sabrim chidamayapti. Ayolim: "Siz yaxshi ko'rgan taomni tayyorlayapman. Lekin biroz kechroq pishadi", — dedi. Sabr qildim. Taom dasturxonga qo'yiliishi bilan o'g'lim chopib keldi va taom so'radi. Nihoyatda ochqaganimga qaramay, tabiiy bir holatda o'g'limni ovqatlantirishni boshladim. "Hozir o'g'limni ovqatlantirishim kerak, keyin o'zim ovqatlanaman" degan shafqat hissi bilan emas, bil'aks, buni tabiiy ravishda amalga oshirdim.

Onalar farzandlari uchun jonini berishga ham tayyor bo'lishadi. Bunga ko'p guvoh bolganmiz. Nimalar qilishmaydi-ya... Masalan, bilim olishim, odam bo'lishim uchun onam qilgan fidoyiliklar haqini hech qachon to'lolmasam kerak. Buning iloji yo'q. O'zi uchun qilmagan ishlarni bolalari uchun qiladi-da. Badaningizga zirapcha kirsa, dardi-dunyosi qorong'i boladi, tunlari uyqusi qochadi, yegani ichiga tushmaydi.

Bilasizmi, Qur'oni karimning biron joyida: "Bolalarингизга yaxshi qarang, ularни киyingiz, ovqatlantiring", — deyilmagan. Biror yeri-da! Alloh azza va jalla u hisni — bolaga bolgan mehrni qalbimizga solib qo'yan.

Bu dunyoda  
farzandsiz tomog‘idan  
bir tomchi suv  
o‘tmaydigan ota-  
onalar qiyomat kuni  
do‘zaxga tushmaslik  
uchun farzandlarini  
qurbon qilishga tayyor  
bo‘lar ekan.

Ota-onan uchun farzand naqadar aziz ekanligini tushundik, to'g'rimi?

Endi Qur'onidan bir oyat o'qib beraman. "Maorij" surasining 11-oyatida aytiladiki, odamlar qiyomat kuni halokatdan qutulish uchun farzandlarini ham, sevgan yorlarini ham, aka-ukalarini ham fido qilishga tayyor bo'lar ekan. Bu dunyoda farzandsiz tomog'idan bir tomchi suv o'tmaydigan ota-onalar qiyomat kuni do'zaxga tushmaslik uchun farzandlarini qurbon qilishga tayyor bo'lar ekan. Gap nima haqida ketayotganini bilyapmizmi? O'y lab ko'ryapmizmi?

Ishxonada boshliq oylik ishlarning hisobini so'rayman deb chaqirsa, oyog'imiz qaltirab qoladi. Javob bera olarmikanman-yo'qmi, biror narsa esimdan chiqib qolmadimikin, jazolamikin, mukofotlarmikin degan o'ylar girdobida qolamiz. U kim? O'zimizga o'xshagan bir odam. Mansabi bizzdan yuqori, xolos. Bizga ish bergen shaxs, bizga ish buyuradigan odam. Biz uning quli emasmiz. U bizni yaratmagan. Lekin undan shu darajada hayiqamiz. Alloh azza va jalla bizni yaratgan, yo'qdan bor qilgan, rizq-nasiba bergen. Bir oy uchun demayapti, butun hayotingiz uchun, sizga berilgan har bir ne'mat uchun hisob so'raydigan kunim bor deyapti.

Shu qadar xotirjammizki...

Biz esa kechalari xurrak otib uxlayapmiz mazza qilib... Yumshoq o'rirlarda rohatlanib uxlay olyapmiz. Shu qadar xotirjam, shu qadar befarqmiz...

## **Bizni harakatlantirayotgan kuch haqida**

Yoshligimizdan bizni harakatga keltirgan bir kuch mavjud bo'lgan. Misol uchun, kichkinaligimizda yaxshi poyabzal olishni orzu qilganmiz. Maktabga borgandan keyin hammandan yaxshiroq o'qish, sinfda ilg'orlardan bo'lish orzu bo'lgan. Keyinchalik qizlarning ko'nglini olishni istaganmiz. Keyin mакtabni tugatib, litseyga borish orzusida yashaganmiz. Keyin oliygohga kirish, keyin uni tamomlash... Ya'ni har doim bizni ma'lum bir joydan ma'lum bir joyga kelishimiz uchun harakatlantiradigan bir kuch, istak bo'lgan. Ular ro'yobga chiqqanidan keyin oddiy narsaga aylangan.

Fizikada bir qoida bor: hech narsa joyida qotib turmaydi. Hamma narsa harakatda bo'la-di. Nimadir oldinga harakatlanmayotgan bo'lsa, albatta orqaga harakatlanayotgan bo'la-di. Aytmoqchimanki, oldinga harakat qilmagan

Oldinga harakat  
qilmagan hamma  
narsa orqaga harakat  
qiladi.

hamma narsa orqaga harakat qiladi. Bir joyda turish holati yo'q. Muallaqlik holati yo'q. Chunki Yer aylanadi.

Xuddi shunday, hayotimizda ham bir kuch bizga ta'sir qiladi va bizni qayergadir harakatlantiradi. Uning qudrati o'sha joygacha yetadi. U yerga yetib borgandan keyin bizni harakatlantiradigan boshqa bir narsani topamiz. U ham ma'lum joyga olib boradi. U ham to'xtaydi. Aytmoqchi bo'lgan narsam: shunday bir narsa topishimiz kerakki, u hech qachon to'xtamasin, bizni harakatlantirishda davom etsin. U shunday bir orzu bo'lishi kerakki, umrimizning oxirigacha yetsin, u shunday bir kuch bo'lishi kerakki, bizni hech bir holatda hech narsa to'xtata olmasin. O'sha maqsadga erishish uchun, o'sha manzilga yetish uchun doim harakatda bo'lishimiz kerak. Bunga o'zimizda kuch topishimiz kerak. Ma'lum bir joyga borgandan keyin charchab, yiqilib qolib, tushkunlikka tushmasligimiz kerak. Yo'qsa, umrimizning so'ngida joyimizdan qimirlamaganimizni, aksincha, ortga qarab ketganimizni ko'ramiz.

Bugun bizni harakatlantirayotgan narsa bir kunlik, o'n kunlik, bir oylik, bir yillik bo'lishi kerak emas. Shunday bir yo'lga chiqaylikki, u yo'l umrimizning so'ngiga qadar bo'lsin.

## Meni kuldirgan bir hikoya

Dengiz bo'yida yurib o'zimni o'zim bir kuldirdim. Keyin sizlarni ham bir kuldiray dedim. Bu bir latifasifat hikoya.

Bir kuni voiz ma'ruza qilish uchun boribdi. Qarasa, hech kim yo'q, faqat bitta odam o'tirgan ekan. Keyin: "Amaki, hech kim kelmabdi-ku. Nima qilamiz endi? Gapiraymi yo gapirmasam ham bo'laveradimi? Boshqa kunga qoldiramizmi? Men uzoq joydan keldim", — desa, amaki: "Endi, bolam, men bunaqa ishlarga tushunmayman. Oddiy bir cho'ponman: mol boqaman, qo'y boqaman. Qarayman, og'ilga bitta sigir kelgan bo'lsa ham, baribir yemini beraveraman", — debdi.

"E, amaki, bopladingiz, — debdi boyagi ma'ruzachi. — Bo'ldi. Ma'ruza qilaman, o'tiring".

Kuyib-pishib rosa gapiribdi. Goh-gohida amakining yoniga borib: "Amaki, tushunyapsizmi? Zo'r bo'lyaptimi?" — deb so'rasha, amaki

ko'zini qisib qo'yarkan. Yana davom etibdi. Gapiraverib tomog'i xirillab qolibdi. Nihoyat tugatib, amakining yoniga kelibdi-da, "Amaki, qalay bo'ldi?" — desa, boyagi amaki: "Og'ilga qaragan paytimda bitta sigir kelgan bo'lsa ham yem beraman, lekin hamma sigirnikini bitta qilib bermayman, o'ziga yetarlisini beraman", — degan ekan.

Qissadan hissa: biz gohida suhbatdoshimizning kimligini unutib qo'yamiz, o'zimizcha osmonlardan kelib bir narsalarni tushuntrishga uringan bo'lamiz. "Bizni tushunishmaypti" degan gap ko'p chalinadi qulog'imizga. Muammo eshituvchida emas, gapiruvchida. Gapiruvchi qarshisidagi tinglovchining kimligini hech qachon unutmasligi shart. Murakkab misollar, murakkab qarashlar... o'zi ham yaxshi tushunib-tushunmaydigan mulohazalar bilanmas, hammaga tushunarli va oddiy tilda suhbat qurilsa, nur ustiga nur bo'ladi.

## Mundarija

Tushimda qiyomatni ko'rdim .....	3
Yetim Fahd qissasini bilasizmi?.....	20
Hidlanishni istagan "gullar" yoxud.....	26
Kimning nima istayotgani ma'lum.....	32
Allohdan pul so'ragan odam.....	37
Qizim, sen pok emasmisan? .....	42
Quloqsizlar .....	51
Tikuvchini yaxshi ko'raman .....	55
Biz ham shundaymiz .....	61
Allohim, yomg'ir yog'dirma .....	67
Shuncha til bilarkansiz-u.....	73
Qotgan qalb nimaga o'xshaydi? .....	77
Muvaffaqiyat siri: zanjirni uzmang! .....	81
Shu qadar xotirjammizki.....	85
Bizni harakatlantirayotgan kuch haqida.....	90
Meni kuldirgan bir hikoya.....	93

ISBN 978-9943-8176-4-7



Abdukarim Mirzayev

# Tushimda qiyomatni ko'rdim

(Hikoyalar to'plami)

Muharrirlar: Otabek Tillayev,  
Abdulla Sharopov

Dizayner va sahifalovchi: Said Ahmad

Ushbu asarga oid barcha huquqlar mualifga tegishtidir. Muallifning yozma ruxsatsiz uni bosma, elektron, audio, video yoki boshqa har qanday shaklda tarqatish O'zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan taqiqolanadi.

© Abdukarim Mirzayev, 2022



18 000  
soʻm

Aziz oʼquvchi!

Asl hikmatlar qalbga abadiyan  
muhrilanadi va tildan tilga, dildan  
dilga koʼchib yuraveradi.

Kaminangiz ham bu hikoyalari  
Sizga yanada yaqinroq boʼlishi,  
yaxshi-yomon kuningizda asqo-  
tishi uchun ularni dastlab video  
hikoyalari tarzida, endi esa moʼjaz  
toʼplam shaklida hukmingizga  
havola etyapman.

Zora, "Ilmni yozish bilan bogʼlab  
qoʼyingilar", degan hadisga  
tayangan bu aʼmolimiz mudom  
yaxshiliklarga vasila boʼlsa...

ISBN 978-9943-8176-4-7



9 789943 817647